

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK:15.301.085

Muxtarov Otabek

**Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish
masalalari**

**5A 110902 - "PSIXOLOGIYA"
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiyasi**

2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. GLOBALLASHUV JARAYONIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	
1.1. Axborot-psixologik xavfsizlik ijtimoiy-psixologik muammo sifatida.....	10
1.2. Milliy psixologiya tarkibi va milliy psixologik xususiyatlar.....	20
1.3. Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlik.....	28
1.4. Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantiruvchi omillar.....	32
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	38
II BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY SHART-SHAROITLARI	
2.1. Mafkuraviy axborot maydonida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati.....	39
2.2. Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllanishi va rivojlanishini o'rganish usullari.....	45
2.3. Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirishda jamoatchilikka xos qadriyatlarining psixologik ta'siri.....	50
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	58
III BOB. AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI	
3.1. Jamiyat vakillari ongida vatanga sadoqat xissini shakllantirish dolzarb pedagogik va psixologik muammo sifatida.....	59
3.2. Empirik tajribalar olib borish va natijalarni taxlil qilish.....	64
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	67
XULOSA.....	68
AMALIY TAVSIYALAR.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	71
ILOVALAR.....	75
GLOSSARIY.....	87

KIRISH

Globallashuv—bu avvalo hayot sura’larining be’qiyos darajada tezlashuvi demakdir. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obe’ktiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo’shnilar, balki jaxon miqyosida boshqa mintaqa va xududlar bilan shunday chambarchas bog’lanib boryabdiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushinish, anglash qiyin emas.¹

Islom Karimov

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda o’ziga xos izchillik bilan olib borilayotgan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da har bir shaxsning o’ziga xos ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog’liq bo’lgan individual jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Bu jarayon esa axborotlashgan jamiyatda shaxs kamolotining ta’minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida eng avvalo shaxsning ijtimoiy taraqqiyoti, o’zligini anglash va tafsilotni to’g’ri idrok qilishi masalalari yotadi.

Bu masalaning yechimi esa yoshlar ongida milliy qadriyatlarga asoslangan fidoiylik, vatanparvarlik, bunyodkorlik va axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o’tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog’liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o’tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisining mohiyatini chuquroq anglash, uning xususiyatlarini o’rganish lozim. Bu hodisani chuqur o’rganmay turib, unga moslashash, kerak bo’lganda, uning yo’nalishiga tegishli tarzda o’zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o’rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma’naviyatini tog’dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo’yish bilan barobar bo’ladi.

Globallashuv sharoitida deyarli barcha davlatlar axborot sohasi tadrijiy rivojlanishi va turli xil tazyiqlar mavjud bo’lgan sharoitlarda uning amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish

¹Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T.:“O’zbekiston” 2008. 111-bet.

bo'yicha faoliyatni kuchaytirdilar.

Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo'ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o'z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g'oyalarni, fikrlarni ilgari surmoqdalar. Shunga ko'ra ko'pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, bular yagona jahon uyg'unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o'zi tobora global harakat tusini olmoqda.

Zamonamizning o'ziga xos jihatlaridan biri, har qanday mahalliy hodisa yoki voqea zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli global xodisa va voqeaga aylanmoqda. Bularning barchasi axborot jarayonlarining globallashuvi bilan bog'liq muammolar dolzarbligini yana bir karra ta'kidlaydi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlarga ko'z yugurtirish bu sohadagi ishlar endi boshlanayotganligidan guvohlik beradi. Jumladan tadqiqotchilar Sh.Ollaberganova, I.To'xtarovlar axborot xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Lekin aynan axborot psixologik xavfsizlik masalalari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan va axborot psixologik xavfsizlikni yosh davrlar psixologiyasiga ko'ra keng ommada shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilmagan. Tadqiqot ishimizning asosiy dolzarbligi shundaki, globallashuvning yoshlar ongiga axboriy psixologik ta'sir o'tkazish quroliga aylanib qolayotganligi, unga qarshi yoshlar ongida axboriy psixologik xavfsizlikni va psixologik immunitetni shakllantirish masalasi bugungi kunda har doimgidan ham dolzarb va ahamiyatlidir.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi: Ijtimoiy psixologiya va psixologiyada axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish va bu jarayonga munosabat bugungi kunda yangi muammo sifatida dolzarb ijtimoiy-psixologik masalalardan biridir. Ijtimoiy psixologiyada axborot tahliliy xususiyatlar asosan rus psixologlari G.M.Andreeva, N.N.Bogomolova, Ye.V.Shoroxovalarning ayrim tadqiqotlarida birlamchi guruh negizida o'rganilgan. Shuningdek, B.D.Parigin, A.I.Antonov, N.N.Obozov, Yu.E.Aleshina, S.I.Golod, O.A.Karabanova, g'arb olimlaridan G.Roland, D.Vagen, Ye.Burgess, L.Terman, M.Odema, P.Boennen, R.Veyss, E.Tiydlar etnik masalalarini, axborot xavfsizlik jihatlarini, shaxslar aro munosabat motivlarini o'z ilmiy ishlarida ochib berishga harakat qilganlar.

O'zbekistonlik psixologlardan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, N.S.Safaev, B.M.Umarov, M.M.Mamatov, X.M.Alimov,

N.A.Sog'inov, N.Salaeva, R.S.Samarov, O.T.To'raeva, E.Sh.Usmanov, M.A.Utepbergenov, G.T.Yadgarova, Sh.Sh.Jo'raeva, M.X.Fayzieva, F.R.Ro'ziqulov, M.S.Salaeva, R.X.Dushanov, N.X.Lutfullaeva, A.T.Qodirova, T.B.Norimbetov, G.A.Qurbonova, sotsiologlardan Sh.Ollaberganova, I.To'xtarov, A.Musaxoniy va boshqalar o'z tadqiqotlarida zamonaviy milliy xususiyatlarning yoshlar ongiga singdirilishi va uning psixologik xususiyatlari, milliy status va rollar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi, shaxsda yuzaga keladigan nizolarining etnik axborot qabul qilish xususiyatlari, o'zbek mintalitetining ba'zi ko'rinishlariga oid diqqatga sazovor ilmiy fikrlarni bayon qiladilar.

Olimlarimiz tomonidan milliy psixologiya muammosi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xozirgi globallashuv davrida Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish va rivojlantirish muammolari ijtimoiy-psixologik va milliy psixologik jihatdan yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: Globallashuv sharoitida axborot psixologik havfsizligini shakllantirish masalasini ilmiy nazariy jihatdan tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari: tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

- Globallashuv, milliy ma'naviyat va axborot tizimlarini tadqiq etishning metodologik jihatlarini o'rganish;
- Axborot va jamiyat taraqqiyoti masalalarini o'rganish;
- Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik ilmiy tahlil qilish;
- Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning vazifalari, asosiy faoliyat yo'nalishlari va uslublarini o'rganish;
- Ochiq axborot tizimi sharoitida shaxsning psixologik o'zini-o'zi himoyalashini o'rganish, taklif va tavsiyalar tizimini ishlab chiqish;
- Jamoatchilik fikri va jamiyat axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash usullarini o'rganish;
- O'zbekistonda yoshlar ongida axborot - psixologik xavfsizlikni shakllantirish istiqbollari doir islohotlar natijalarini o'rganish va bir tizim holiga keltirish.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

- Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirilishi ma'lum bir tashqi ta'sirlarning muhimligi va ularning shu xususiyatga moslashuvining etnopsixologik xususiyatlari ma'lum bir kommunikativ, monipulyativ, ommaviy xulq-atvor shakllari orqali namoyon bo'lishi ehtimol;
- Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish jarayoni har bir oiladagi o'ziga xos psixologik muhit, tartib-qoidalar, udumlar bilan bir qatorda shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik jihatdan yangi ijtimoiy rollarga, o'zaro ta'sirga kirisha olish,

ta'lim tarbiyaning o'ziga ta'siri va milliy majburiyatlarga moslashish malakalari ham ahamiyatli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqotning ob'ekti: Shaxs tafakkurining axborot istemolidagi ijtimoiy psixologik fenomenlari, axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish jarayonida, globallashuv jarayonlari, axborotlashgan jamiyat, OAV, keng jamoatchilik ommasi, shaxs, yoshlar, axboriy oqim ta'siri ostida yashayotgan keng jamoatchilik ommasi.

Tadqiqotning predmeti: Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirishning psixologik mexanizmlari va omillarini psixologik qonuniyatlar asosida o'rganish.

Tadqiqot bazasi: O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini o'rganish va monitoring qilish instituti Andijon viloyat bo'limi, Andijon pedagogika kolleji, ADU qoshidagi 2-son akademik litsey, Andijon shahar 3-umumta'lim maktabi, Andijon shahar 8-son MFY, "Xamroh" NNT. Jami 360 nafat shaxs (120 nafar oliy ma'lumotga ega fuqarolar, 80 nafar o'rta maxsus malumotga ega fuqarolar, 160 nafar kollej, litsey, maktab o'quvchilari)

Ilmiy yangiligi:

1. Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirishning o'ziga xosligi zamonaviy talqin etiladi.
2. Axborot-psixologik xavfsizlik shakllanishi va axborot istemol madaniyatiga tasir etishi jamiyat vakili uchun muxim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslanadi.
3. "Mahallada o'smir yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash" loyihasi tanlangan mahallalarda amaliyotga tatbiq etiladi.
4. Nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligi taminlanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi:

Tadqiqotimizning metodologik asosini ong va faoliyat birligi tamoyili (A.N.Leontev), determinizm tamoyili (S.L.Rubinshteyn), shaxsning psixologik va ijtimoiy-psixologik moslashuvi bo'yicha jahon psixologiyasida ilgari surilgan konsepsiyalar (Z.Freyd, K.Rodjers, A.Maslou, G.M.Andreeva, A.V.Lazurskiy, D.V.Olshanskiy) hamda mamlakatimiz psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.Ollaberganova, I.To'xtarov va boshqalarning ilmiy g'oyalariga tayanadi. Shuningdek, biz tadqiqotimizda mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan milliy xususiyatlarga doir fikrlari, Sharq mutafakkirlarining etnopsixologik masalalariga bag'ishlangan qarashlariga asoslandik. Shuningdek, buyuk psixologlarning axborot sohasida olib borgan tadqiqot ishlari, kommunikatsiyaga doir nazariy g'oyalar, qonun hujjatlari ilmiy tadqiqotimizning metodologik asosidir.

Ximoyaga olib chiqilayotgan asosiy xolatlar:

1.Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish shaxsga xos xususiyatlardan kelib chiqib muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

2.Axborotlar oqimining shaxs faoliyatiga ta'siri uning o'z millatiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi.

3.Axborot-psixologik xavfsizlik shaxs tafakkurida g'oyalar analiz-sintezini to'g'ri tahlil qilishini ta'minlaydi va har bir ulg'ayayotgan yosh o'ziga jamiyat faoliyatiga tamoshabin emas, jamiyat faoliyatiga daxldor shaxs sifatida qarashiga erishiladi.

4.Axborot-psixologik xavfsizlikning ta'lim tizimidagi o'rni o'quvchilarga milliy urf odatlar, milliy qadriyatlarni anglash va o'z millatiga yuksak xurmatini shakllantirish bilan belgilanadi.

Ilmiy tadqiqotning metodi:

Tadqiqot ishini olib borishda quyidagi metodlardan foydalanildi. SHakllantiruvchi, rivojlantiruvchi metodlar, empirik metodlar, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat metodi, sotsiometriya metodi, modellashtirish metodi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

Axborot-psixologik xavfsizlik haqidagi nazariy bilimlar boyitiladi. Jamoatchilik fikri va shaxs va jamiyat haqidagi, ijtimoiy, psixologik qarashlarning nazariy va amaliy ahamiyati o'rganiladi va ularning zamonaviy talqini yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Axborot psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya fani nazariy manbaalar bilan boyitiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish va rivojlantirish usullari ishlab chiqiladi va amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratiladi. Xozirda amalda qo'llanayotgan, global tarmoqda mavjud bo'lgan, axborot xavfsizligini taminlovchi "elektron imzo"ning shaxslar tomonidan vijdonan amalga oshirilishi uchun tafakkur sintezlash dasturi joriy etiladi. Jamiyat vakillarida axborotning mavzusi, mavzuning g'oyasi, g'oya ortidagi yashirin maqsadlarni aniqlash mexanizmlari shakllantiriladi va milliy qadriyatlarga nisbatan xurmat tuyg'usi oshiriladi.

Tadqiqotni ommalashtirilishi: Ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha olingan natijalarning asosiy qismi 2013-2014 yil Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti, "Psixologiya" va "Pedagogika" kafedralari ilmiy-uslubiy seminarlarida muhokama qilindi. Tajriba maktab pedagogik kengashlarida hamda dissertatsiyaning chop etilgan ishlarida bayon etilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va xajmi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 bob, 9 bo'lim, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Umumiy hajmi 87 sahifadan iborat.

I-Bob.GLOBALLASHUV JARAYONIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

1.1. Axborot-psixologik xavfsizlik ijtimoiy-psixologik muammo sifatida

“Axborot” tushunchasi bugungi-kunda global mohiyat kasb etmoqda. U inson tafakkuriga turli yo’nalishlarda ta’sir o’tkazuvchi, yaxlit insoniyat hayotini va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi.

Ommoviy xodisalar turli kishilar guruxida shaxslararo munosabatlar va o’zaro ta’sir jarayonlari, milliy etnopsixologiya hamda sinflar psixologiyasi muammolari, milliy madaniyat, urf – odatlar, an’analar, udumlar, aqidalarning shaxs shakllanishidagi roli, jamyat a’zolari bir-birini idrok qilishlari va tushunishlari o’zaro ta’sir masalalari tushuniladi.

Aslini olganda axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalaydigan barcha bilimlar sohasida qadimdan mavjud bo’lgan. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchani “aloqa” va “boshqaruv” tushunchalari bilan birga keng qo’llanilishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash. saqlash, ko’paytirish va tarqatish alohida ilmiy sohani - informatika sohasini tashkil etadi. Bu lotinchada tanishtirish, tushuntirish, sharq tillarida esa habar, axborot ma’nosini bildiradi. Axborot (lotincha “information”-tushuntirmoq, bayon yetmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri dastlab kishilar tomonidan og’zaki, keyihiroq yozma yoki boshqa shakllar uzatilgan ma’lumot; XX asrning o’rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, atomat-avtomat o’rtasidagi ma’lumot hamda

xayvonlar va o'simliklardagi signal almashinuvi, hujayrada hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilarni anglata boshlagan.

Axborot sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining shiddat bilan rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishiga va kishilik hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirishga olib keldi. Bu esa o'z navbatida bugungi kunda g'oyatda tezkorlik bilan o'sib borayotgan «Axborotli jamiyat» nazariyasini maydonga keltirdi.

Kompyuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ydi. Axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvishlar tug'dirmoqda. Chunki hozirgi zamon kompyuterlarining eng so'nggi avlodi xar birining protsessorida 80-100 million tranzistor bo'lib. Har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo'jizasi tufayli xohlagan kishi Yer yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalarda aloqa o'rnatishi, muammoni lahzalarda hal etishi mumkin. Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, ahloqiy me'yorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda esa yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr tsivilizatsiyasi axborot xuruji, informatsion-psixologik kurash qiyofasida o'zini namoyon etmokda. Xozirgi murakkab ijtimoiy xodisalar sharoitida ommaviy ijtimoiy psixologik qonuniyatlarni bilishning xamda ularni boshqarishning ahamiyati benixoya kattadir. Ijtimoiy tasavvurlar shaxslararo munosabatlar tizimidashakillanib, ular shaxs xulq atvorini turli ijtimoiy vaziyatlarda boshqarib turuvchi muhim psixologik mexanizmdir.

Insoniyatning kelajakdagi taqdiri va istiqboli xususida o'ylar ekanmiz, axborot texnologiyasi mohiyati, uning taraqqiiyoti, inson va insoniyat xayotiga ta'sir o'tkazishi omillarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, inson faoliyatini maqsadga muvofiq holda yo'lga quyish, yo'naltirish. Umummanfaat atrofida birlashtirish, jamoa va jamiyat ishiga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish, insoniyat hayotini saqlashda mas'ullik, uning taqdiriga taqdirdoshlik hissini shakllantirish.

Ikkinchidan, turli fe'l-atvorga, tabiatga ega bo'lgan. o'z manfaati ustuvorligiga intilayotgan sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash. Urush madaniyatsizligidan - tinchlik madaniyatiga o'tish, davlatlararo va mintaqalararo munosabatlarda bir-biridan qochish emas, bir-biriga intilish kayfiyatini yaratish, jahon muammolarini hal etishga sog'lom g'oyalar berish ruhiyatini shakllantirish.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti cheksiz darajada rivojlanayotgan bir paytda uning keng imkoniyatlarini umumiy taraqqiyot yo'lga safarbar etish kayfiyatining ustuvorligini ta'minlash. Aks holda g'ayriahloqiy va g'ayri insoniy kayfiyatdagi fuqaro qudratli

texnologiyalarni jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan g'oyat xatarli maqsadni amalga oshirishga ishlatishi mumkin. Bu, ayniqsa, xalqaro terrorizm, narkobiznes, diniy eksterimizm singari global fojealarni boshqarishda, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni chalkashtirishda, bank, moliya kridit tizimini izdan chiqarishda qo'l keladi.

To'rtinchidan, axborot texnologiyasining beqiyos imkoniyatlarini, ulkan qudratini to'la-to'kis inson hayotiga tadbiiq etish, inson taqdiriga xizmat qildirishni ta'minlaydigan eng zamonaviy va samarali boshqaruv mexanizmini iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va siyosiy sohalarida yuksak madaniyat bilan unumli foydalanish asosida tashkil etish.

Tig'iz axborotlashgan jamiyatda «shaxs-jamiyat-davlat» aloqadorligi, ularning o'zaro uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash bir muncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgani va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazari, o'z qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruxiy extiyojidan kelib chiqib o'ziga mos axborotni qabul qiladi, uni tahlil etadi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi ana shu tahlillar asosida o'zining shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada o'z iuqtai nazarini shakllantiradi.

Demak, har qanday axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi. jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan «shaxs-jamiyat- davlat» mutanosibligiga u yoki bu tarzda ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning roli yanaham oshadi.

Umuman olganda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi qanday paydo bo'ldi? Uning hayotiyliigi, insoniyat taqdiriga daxldorligi nimada? Ana shunday savol tug'ilishining o'zi muammoning dolzarbligini va o'ta keskinligini ko'rsatadi. Bizningcha axborog-psixologik xavfsizlik tushunchasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik - bu bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish! orqali uni o'z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarga ma'naviy-ruxiy ta'sir, buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, buzg'unchi g'oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo'lgan xalqlar va millatlarni genotsidga olib kelishi muqarrar.

Uchinchidan, tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruxiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, jamiyatning siyosiy ongi, huquqiy bilimlar saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy darajasiga qarab jamiyatning taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishi muqarrar.

To'rtinchidan, ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta'sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublarining tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot-psixologik xavfsizlik muammosi yana ham keskinlashib qoladi.

Beshinchidan, mazkur atamaning mohiyati shundaki, u inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik takdiri bilan bog'liq bo'lgan global masalalarni ham qamrab oladiki, natijada hozirgacha mavjud bo'lgan global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzgunchisi yoki, aksincha, eng tashabbuskori bo'lib qolishi muqarrar. Bu holatni xalqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni xalqaro etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj olishi mumkin bo'lgan holatlarda yana xam xavfliroq mohiyat kasb etadi. Bunday paytda ko'proq an'anaviy siyosiy muvofiqlashtirish tajribalaridan kengroq foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni sharqona munosabatlar ilmi (I.Karimov), muloxazalilik, mushohadalilik, har qanday voqea va hodisalarga aql-idrok yo'rig'i bilan yondosh tamoyili ustuvor bo'lmog'i lozim.

Axborot siyosatini tig'iz axborotlashgan jamiyat shakllanayotgan bir paytga hozirgi zamonaviy talablardan kelib chiqib yangilash, modernizatsiyalash zarur.

Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot-psixologik hurujdan ishonchli saqlash, qat'iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi.

Har bir yangi axborot-psixologik mojaro himoya qilinayotgan jamiyat uchun yangi taxdidlar keltirib chiqarishi ham mumkin. Demak, tahdid qancha ko'p bo'lsa, qo'rquv, xadik va ishonchsizlik shuncha ko'payadi. Ana shunday ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, jamiyat kayfiyatini muvofiqlashtirib, yo'naltirib, boshqarib turish muhim axamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ma'lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lida unumli foydalanish, uni boshqarish, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Bizning nazarimizda axborot-psixologik xavfsizlik - bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o'zini o'zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma'naviy-ma'rifiy mezonlar asosida shakllantirish axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Jamiyatni boshqarish, hozirgi zamon me'yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarni qidirib topish zarur. Jumladan, siyosiy-huquqiy. tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda boshqaruvning eng maqbul uslubini topishni, bevosita hokimiyat va unga ishonchli, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlashda fuqarolar yaqdolligini, ma'naviy va g'oyaviy jihatdan birligini ta'minlashni taqozo etadi.

Jamiyat shu darajada shakllanishi lozimki, uning a'zolari tig'iz axborotlar bozorida umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olish. Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga dahldor bo'lgan qadriyatga aylanmog'i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni maqsad etish, jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta'sir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi. farovonlik va urushni targ'ib etuvchi, pornografiya, maishiy buzuqlik. shaxslar mavqeiga, obro'siga va sha'niga salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-ruhiy me'yorlari vujudga keladi.

Shu o'rinda Fransuz olimi G.Lebon qarashlariga e'tibor bersak. Diqqatni ommani elitaga – jamiyatdan yuqori turuvchi tanlangan guruxlarga qarshi qo'yishga qaratadi. U ommaning ayrim xollarda, ayniqsa biror xodisa ro'y berganda "qiziqqonlik" xususiyati ustun turishi xaqida yozadi. Uning fikricha bir qancha odamlarni bir yerda to'planishi ommani xosil qiladi va bu odamlar kim bo'lishidan qat'iy nazar olimmi yoki oddiy insonmi, shu zaxotiyok kuzatuvchanlik va ziyraklikni yo'qotadi. Chunki bu xolatda ular vijudini instinktlar va xissiyotlar boshqaradi.

Axborot psixologik xavfsizlik tushunchasi ana shu tarzda ma'naviy-axloqiy mezonga aylanadi. Erkin shaxs va ozod kishilik jamoasi bo'lgan fuqarolik jamiyati sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikning o'ziga xos tizimlari shakllanmog'i lozim. Bu bevosita OAV faoliyati va unda xizmat qiladigan axborot oluvchi, saqlovchi va tarqatuvchi xodimlarning siyosiy saviyasiga, kasb mahoratiga va eng muximi fuqarolik pozitsiyasiga, jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usiga bog'liq. Zotan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning bosh mezoni va asosiy tayanchi millatparvarlik, vatanparvarlik, fidokorlik tuyg'usi!

Albatga, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos asoslari bor. Bular:

Birinchidan, tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlanganlik. Zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan yetarli darajada qurollanish.

Ikkinchidan, mustahkam moddiy-moliyaviy asoslarga ega bo'lish. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan soha xodimlari moddiy manfaatdorligini oshirish.

Yuqoridagilarning tub mohiyati keng ommani o'z qurshoviga olayotgan globallashuvdir. Globalashuvga qisqa ta'rif bermoqchi bo'lsak, uni turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishi deyish mumkin.

Globalashuvga berilgan ta'riflar juda kup. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani bizningcha, frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rif. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

- Globalashuv - muttasil davom ztidigan tarixiy jarayon;
- Globalashuv - jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni;
- Globalashuv - milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.¹

B.Badi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har uchallasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz.

Globalashuvning mamlakatlar iqtisodi, siyosat va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Maxatma GandiniNG quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak, Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».

Globalashuvning o'zi murakkab jarayon ekani, uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan ham jahonga bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo'lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

Globalashuv tarafdorlari globalistlar, deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. Globalashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo'lib ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor. MDH hududida, aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormokdalar. Bu yerda ular turli anjumanlar, seminarlar o'tkazish uchun to'planib turadilar.

¹ М.Лернер Развитие цивилизации в Америке. Образ жизни в Соединенных Штатах сегодня. М.:1992, с.85.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya'ni tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va kuchaydi, Institutsionallashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa taraqqiyoti va tiklanish banki ulkan tashkilotlarning vujudga kelgani misolida ham ko'rish mumkin.

Globallashuvning tezlashishi va kuchayishiga javob sifatida aksilglobalistlarning faoliyati ham kuchayib ketdi. Ular globallashuvning faqat salbiy oqibatlariga emas, umuman uning o'ziga qarshi chiqa boshladilar. Masalan, Rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovev "Aksilglobalizm sektorlari» nomli anjumanda so'zlagan" nutqida shunday deydi: "Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik kolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!" ,-degan edi.

"Aksilglobalizm sektorlari»" anjumanidagi yana bir ma'ruzachi A.Parshev esa globallashuvga quyidagicha ta'rif beradi: "Aslida globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zaxiralarni o'zlashtirishdan iborat"¹.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, globalizm tarafdorlari ham, dushmanlari ham asosiy e'tiborni iqtisodiyot sohasiga qaratishadi. Globallashuvning ma'naviyatta ta'siri va ma'naviy globallashuv masalalari sotsiologiya, falsafa, madaniy antropologiya fanlarida o'zining aksini yetarli darajada topganicha yo'q.

Bir maqola doirasida globallashuvning faqatgina eng asosiy jihatlari va yo'nalishlarini ham qamrab olish qiyin. Shuning uchun mazkur maqolada globallashuv milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan va o'tkazishi mumkin bo'lgan ta'sir xaqida fikr yuritamiz.

Ma'naviyatni ham bir uyga qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta xam milliy ma'naviyat yo'qki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la ihtotalangan bo'lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy changalzorlarda turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamonaviy tamaddun ta'sirini o'zida his qilib turadi. "Qolaversa tarixni taxlil qilish boshqa xalqlar ma'naviyatidan baxramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilgandan guvohlik beradi.

¹ М.Лернер Развитие цивилизации в Америке. Образ жизни в Соединенных Штатах сегодня. М.:1992, с.91

O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli xam Shark, xam G'arb madaniyatidan baxramand bo'lgan. Muhimi shundaki, xalqimiz G'arb va Sharq ma'naviyatidan baxramand bo'lib ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'tarildi. Bu fikrning tasdig'ini ma'naviyatning tarkibiy kislari bo'lgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqod san'at misolida ham ko'rish mumkin. Buni faqat Vatanimiz emas, umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o'rin egallagan allomalarimiz ijodi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, ana shunday ajdodlarimizdan biri Abu Rayxon Beruniy Xitoy va Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasini, tabiiy fanlarini chuqur o'zlashtirgan edi. Hindistonda bo'lgan paytida u hind fani va madaniyatini o'rganar ekan, qadimgi manbalarni o'rganish uchun kadimgi xind tili-sanskritni Pilit lozimligini angelaydi. U sanskritni o'rganishga kirishadi va kisha fursatda uni chuqur o'zlashtiradi. Endi qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalardan o'rgana boshlaydn. U shuningdek, yunon va Rim madaniyati va fanini o'rganish uchun yunon va lotin tillarini o'zlashtirgan edi.

Jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy ham o'nlab tillarni bilgan va o'nlab xalqlar madaniyati va ma'naviyatini chuqur o'rgangan edi. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Eng muhim jihati shundaki, o'sha buyuk ajdodlarimiz jahon xalqlari ma'naviyatini o'rganibgina qolmay, ularni chuqur taxlil etishdi, tegishli joylarini rivojlantirib olamshumul kashfiyotlar qilishdi.

Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqlari ma'naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma'naviyat cho'qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Mening nazarimda bizga hozirgi kunda ana shu ijodiy yondashuv yetishmaganday. Bizga ta'sir o'tkazayotgan yoki ta'sir o'tkazmoqchi bo'layotgan g'oyalarning qay birini qalbul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Ana shunday tahlilni o'tkazish uchun esa ba'zan erinchoqligimiz, ba'zan uquvsizligimiz xalaqit bermoqda. Buning oqibatida qalbul qilish qerak bo'lgan g'oyalarni rad etish va rad etish lozim bo'lgan g'oyalarni qalbul qilish hollari ham uchrab turibdi.

Shunday g'oyalar borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni taqillatib. kirib keladi. Shunday g'oyalar ham borki, ular o'g'ri kabi kechasi tuynukdan tushishadi.

Eshik qoqib keladigan g'oyalar milliy ma'naviyatni boyitishga, rinojlantirishga xizmat qiladi, chunki milliy ma'naviyatlar o'zaro ta'sir jarayonida rivojlanadi. Har qanday xalq ma'naviyati rivojiga nazar TASHLANSAni boshqa xalqlar udum va an'analarni o'zlashtirish va moslashtirish orqali ruvojlanganini ko'rish mumkin.

O'zbek milliy ma'naviyati ham uzoq va yaqindagi qo'shnilarning ilg'or an'alarini o'zlashtirish natijasida ruvojanib boradi. Ma'naviyatimizni ruvojanlash tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch xosil qilish mumkin.

XX asr boshida uzbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi, demak milliy teatr san'ati to'g'risida so'z ham yuritish mumkin emas edi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Bexbudiy, Fitrat singari ma'rifatparvarlarning sa'y-harakatlari tufayli dramaturgiya shakllana boshladi va keyinroq teatr san'ati vujudga keldi. O'sha paytlarda teatr san'atini o'zbek millati uchun yot, begona g'oya deb e'lon qilganlar oz emas edi. Dramaturgiya va teatrni rad qilish faqat dahanaki tanqid bilan chegaralanmagan edi. San'atning bu turlarini O'zbekistonga olib kirishga harakat kilayotgan insonlarni mazah qilish, masharalash, hatto sazoyi qilish o'zlarini milliy ma'naviyat himoyachilari, deyuvcilar tomonidan amalga oshirilgan edi.

1.2. Milliy psixologiya tarkibi va milliy psixologik xususiyatlar

Milliy psixologiya va mafkuraviy immunitet bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Inson boshqa tirik jonzotlardan o'zining aql-zakovati, tili va tafakkuri bilan farqlanadi. U ongli mavjudot sifatida voqelikni anglash jarayonida, qalbida turli xil his-tuyg'ular, tafakkurida xilma-xil fikrlar, g'oyalar yaratadi. Inson tafakkurida paydo bo'lgan har qanday fikr, har qanday qarash ham milliy ruxiyat bo'la olmaydi. Milliy psixologiya falsafiy talqinga ega bo'lgan chuqur tushunchadir. Milliy psixologiya - jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan turli xil fikrlar, qarashlar natijasida vujudga keladi. Oxir oqibatda shaxs psixologiyasi ijtimoiy kuch vositasiga aylanadi. Inson tafakkurining mahsuli sifatida Milliy psixologiya, inson va jamiyat ruhiyatiga singib boradi.

Milliy psixologiya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki ruhiy olamiga kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

Shuning uchun ham milliy psixologiya va mafkuraviy immunitetning o'zaro bog'liqlik jihatlariga ko'ra yanada takomillashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish, globalashuv jarayonlari, axborotlashgan jamiyat, OAV, keng jamoatchilik ommasi, shaxs, yoshlar, axboriy oqim ta'siri ostida yashayotgan keng jamoatchilik ommasi uchun hardoimgidan ham zarurdir.

O'zbek xalqining milliy etnik ong xususiyatlariga ta'rif berganimizda uning sifat va fazilatlarini tarannum etuvchi, kishilarning bir-birlariga bo'lgan insoniy munosabatlari, do'st-birodarliklari, axil-ittifoqlilari, bir-birlariga sadoqatliklarini anglashlikni e'tirof etishimiz kerak. Odamning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi va butun atrofda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga munosabati hamda qarashlari uning ongida yuz beradi. Shu boisda ham ong so'zi tilimizda aql

so'ziga yaqinroq ko'rinishda qo'llanib kelinadi. Insonning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamalari bildirgan ma'nolar bir-biriga xos bo'lib, ong ham, aql ham odam miyasining maxsulidir. Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot-kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma'lumot (ma'lumotlar majmui)ni anglatadi. Sharq mutafakkiri Abu Mansur as-Solibiyning "Yatimat ad-daxr fi-maholisi axli asr" (Zamonamiz axlining fozil kishilari) nomli asaridagi "Tafsilotni quloq ila tinglamoq odamiylikdir, tafsilotni idrok ila anglamoq insoniylikdir" jumlasini bilan boshlanuvchi qarashlari milliy psixologik xususiyatlarimizda qadimdan o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda axborotlashtirish - axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui.

Informatsion jarayonlar-axborotni qidirish, yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash va tarqatish jarayoni.

Axborot tizimi informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi tartibga solingan hujjatlar hamda axborot texnologiyalari majmui.

Axborot resurslari-muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banki kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborot-ijtimoiy va siyosiy xayot borasida jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy tashkilotlar o'rtasida almashinuv predmeti xisoblangan va ular o'z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborotlar insonlar o'rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o'quv va tarbiyaviy ishlari tashkil etish, targ'ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

To'raligi, asoslanganligi va ishonchligi muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ishlab chiqishda fan, ularni tarqatishda OAV muhim rol o'ynaydi.

Axborot madaniyati texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlariga ega. Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash, saqlash va yetkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari xaqidagi bilimlarimizni anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy ma'noda axborot "madaniyati insonning muayyan ma'naviy-axloqiy, siyosiy, xuquqiy va estetik qadriyatlarini, o'zlashtirgan xolda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko'rsatishini anglatadi.

Axborot iste'moli madaniyati (O'zMU tadqiqotchisi U.Qo'shaev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan tushuncha) axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi, ma'lumotdarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o'zida ifoda etadi.

Axborotlashgan jamiyat-kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga asoslangan sifatini tavsiflovchi tushuncha.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni «bosqichlar almashinuvi» nuqtai nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishlok xo'jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo'lgan iqtisodiyotning to'rtinchi - «axborot sektori» yuzaga kelishi bilan bog'laydilar.

Ularning fikriga ko'ra, industrial jamiyatning asosi bo'lgan kapital va mexnat axborotlashgan jamiyatda o'z o'rnini axborot va bilimga bo'shatib beradi.

Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. G'arb sotsiologlari fikriga ko'ra, axborotlashgan jamiyat texnika sohasida - ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta'lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, iqtisodiy hayotda - axborotning tovarga aylanishi, ijtimoiy hayotda - axborot turmush, hayot darajasi o'zgarishining asosiy omiliga aylanishi, siyosiy sohada - keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin olishga yo'l ochilishi, madaniyat sohasida - axborot almashinuvi davr ehtiyojlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ayni paytda axborotlashgan jamiyat:

- uyda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va buning oqibatida tabiatga tushadigan «yuk»ning keskin qisqarishiga olib keladi;

- ish kunining qisqarishi odamlarning uyda ko'proq bo'lishiga va oilaviy muxitning barqaror bo'lishiga zamin yaratadi;

- keyingi yuz yilliklarda kishilar shahar yashash va ishlash uchun eng qulay makon, degan xulosaga keldilar. Axborotlashuv jarayoni esa, qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, eng obro'li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo'layotgan madaniyat yutuqlarini istifoda yetish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida nisbatan osuda va tinch bo'lgan, tabiatga yaqin qishloklarga qaytish yoki u yerda doimiy qolish uchun zamin yaratadi;

- masofaviy ta'lim bilim olishning eng qulay shakliga aylanishi barobarida, axolining keng qatlamlari uchun xatto eng elitar oliy o'quv yurtlari eshiklarining ochilishiga zamin yaratadi. Sodda qilib aytganda, ma'lumotlilik ko'p darajada insonning hohish-irodasiga bog'liq bo'lib qoladi.

Ayni paytda, axborotyaashuv jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. «Yumshoq erotika» dan tortib «ochiq pornografiya»gacha bo'lgan hodisalar bilan bog'liq muammolar ana shular jumlasidandir. shunday holatlarning oldini to'la-to'kis olib bo'lmaydi. Zero, axborot tarmoqlarining uzilishlarsiz ishlashi uning muhim sifatii belgisi hisoblanadi bu jarayon doimiy takomillashuvni boshdan kechirmoqda. Demak, yuqoridagi kabi «muammolar» yo'lga qanchalik to'siq qo'yilmasin doimo ularni «aylanib» o'tish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Yana bir muammo mualliflik xamda intellektual mulk xuquqining buzilishi bilan bog'liq. Shunday ekan, axborot tarmog'ida ko'pchilik ko'ra olmaydigan xududlar yuzaga kelishi tabii. Bugungi kunda kompaniyalar o'z axborotlarini himoya qilish va ruxsat etilmagan kirishlarning oldini olish uchun katta mablag'lar sarflayotgani ham shundan. Shu bilan birga muayyai axborotlarni yashirishdan tortib, uni noqonuniy ravishda e'lon qilishgacha bo'lgan ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan suviste'molliklar ham kelib chiqishi mumkin.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillarga har xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbalari miqdori o'rtasidagi farkda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televidenie, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo'l topish sohasida keskin bo'linish, tabaqalashuv sodir bo'lmoqda.

Yoshlar o'zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchiligi hamda bo'sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko'rsatishadi. Boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga yega axborotlar ta'siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi.

3. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar ta'sirlashuvi ijtimoiy hayotning mazmunan boyishi, takomillashuvining muhim omili xisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot almashinuvi insoniyat taraqqiyotining muhim shartiga aylandi deyish mumkin.

O'z davrida og'zaki nutqning paydo bo'lishi bilan axborot uzatish imkoniyatlari kengaygan bo'lsa, yozma nutq rivoji bu borada o'ziga xos yangi bosqichni boshlab bergan edi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti, integratsiya va globallashuv sharoitida esa axborot makonida tub sifatii holat kechmokda. Endiliqda, axborot uzatish nafaqat xilma-xil (radio, televidenie, matbuot, telefon, faks, pochta, internet) shakllari, balki, o'ta tezkorligi bilan ham jamiyat

taraqqiyotining oldingi davrlardagidan farq qiladi. Bunday sharoitda, axborot iste'moli jarayonida ham yangi tendentsiyalar kuzatilmoqda.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi» degan fikrning paydo bo'lishiga ham axborotning yuqoridagi xususiyatlari sabab bo'lgan.

Ijtimoiy makon - bu, ayni vaqtda axborot makoni hamdir. Globallashuv sharoitida axborot hajmining kattaligi, ularning zamonaviy tezkor vositalar orqali tarqatilayotgani axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta'minlamoqda. Xususan, zamonaviy ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, Internet tizimi) orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli siyosiy taqiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmaydi.

Axborot iste'moli ijtimoiy, aniqrog'i, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga karatilgan hodisadir. Axborot iste'molining xizmatlar iste'molining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday xizmatni iste'mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu kabi xususiyatlariga e'tibor beriladi. Bu jarayonda, iste'mol qilinayotgan xizmatning talab-taklif xususiyatlari ham inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ketgan xizmatlarning iste'mol darajasi yuqori bo'lib, ularga talab kuchayadi. Mazkur xususiyatlar axborot iste'moli jarayoniga ham xosdir. Birok,, ma'naviy ne'mat bo'lgan axborotni iste'mol qilish o'ziga xos tomoilari bilan ham ajralib turishini ta'kidlash joiz. Xususan, axborot, konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonida iste'mol qilinadi-ki, mazkur darajalarda iste'mol jarayonlari bir-biridln farq qiladi. Masalai, biroq shaxs uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun axamiyatsiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga xam ega. Chunonchi, g'arbda o'ta ommabop bo'lgan axborotlar, sharq xalqlari tomonidan kam iste'mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir tarixiy davrda katta kiziqish bilan kutib olingan ma'lumotlar, vaqt o'tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in'ikos etmasligi mumkin.

Axborot iste'moli kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'iy nazar, qabul qilish, tyshynish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmokda-ki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qasmiga aylanishi zarur. Axborot iste'moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muxim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqori-ki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda qimmatini yo'qotishi aniq. Bu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilaridan tubdan farq qiladi.

Shubhasiz, zarur axborotlarga ega bo'lishga intilish - davr talabi. Birok, bugungi kunda, shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyat va davlatning o'zi haqida axborotlarni tarqatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ikki asosiy jihati mavjud. Birinchidan, masalan, Internet tarmog'i imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda, ulardan mamlakatimizning jaxon hamjamiyatida tutgan o'rnini mustahkamlashda keng foydalanish zarur chunki, jaxonga tanilish uchun nafaqat real dunyoda, balki, axborot dunyosi (virtual olam) da ham harakatlar olib borish zarur. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "bu borada ishni to'g'ri tashkil etish uchun internet tizimidan samarali va oqilona foydalanish, uni o'zimizning ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak. Bizning zaif tomonimiz shundaki, internetda O'zbekiston bilan bog'liq ma'lumotlar juda kam. Nega deganda, bizda bu jarayonning texnikasi va texnologiyasi talab darajasida emas. Milliy qadriyatlarimiz, tarix va merosimiz, bugungi fan, san'at va adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini internetga kiritish dasturi ishlab chiqilmagan. Ikkinchi muhim jihat shundaki, yurtimiz hayotiga doir ayrim noxolis, tor doiradagi manfaatlardan kelib chiqib tarqatilayotgan ma'lumotlarga javoban axborotlarni global miqyosda targ'ib-tashviq etish tabiiyki axborot xurujlariga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini bajaradi, Bu esa, turli geosiyosiy manfaatlar doirasidagi axborot xurujlari tasirini kamaytirish va milliy axborot makoni xavfsizligi ta'minlanishining muhim sharti hisoblanadi".

Buning uchun, kishilarda axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirishga erishish zarur. Shundagina ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etishning oldi olinadi. Eng muhimi esa, axborot iste'moli madaniyatiga ega inson, jamiyat, xalq va millat g'arazli manfaatlar doirasidagi geoaxborotlar ta'siriga tushib kolmaydi. Albalta, axborot iste'moli madaniyatining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tizimli ravishda sa'y-harakatlarni olib borishni taqozo etadi.

Axborot iste'moli madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qatar funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulyativ tartibga solish, axborot, aksiologik (baxolash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, Internet orqali juda ko'p njobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin.

I.A.Karimov O'zbek xalqi xech kachon, xech kimga qaram bo'lmaydi. shuningdek, "biz ba'zan g'arb madaniyati to'xtovsiz kirib kelayotgani xaqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U xam bo'lsa,

internetga o'zimizga mos bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat". Darxaqiqat hamma gap, mazkur muhim resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishida.

Boshqacha aytganda, tarmokdan illat qidirish bilan o'vora bo'lmasdan, uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo'lida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, internet virtual, ammo, ob'ektiv xodisadir. Uning hayotimizga kirib kelishini nazorat qilib bo'lmaydi. Odamlarimizni internet tizimidan uzoqroq tutishga intilish emas, balki, undan oqilona foydalanishga o'rgatish, axborot iste'moli madaniyatini yuksaltirishga harakat qilishimiz to'g'ri bo'ladi. Zero, kishilarda axborot iste'moli madaniyati shakllangan bo'lsa, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarni baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Lekin, aksariyat hollarla bunday paytda, ayniqsa, baxolanilayotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruximizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y-basti bilan o'zligini namoyon qiladi Madaniyatning baholash funktsiyasi tufayli tanlanish sodir bo'ladi. madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi o'ziga xoslik, ayni paytda, davomiylik, vorislik ta'minlanadi.

Shuning uchun, hozirgi davrda aholimiz. ayniqsa yoshlarimizniig axborot uzatishning zamonaviy texnikasi va texnologilsini mukammal darajada o'zlashtirishi muxim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, mamlakatimizda Internetdan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish bilan birga, mazkur tarmoqqa milliy manfaatlarimiz aks etgan axborotlarni turli shakl va tillarda kiritib borish zarur. Zero, jamiyatimiz hayotining turli sohalari to'g'risida axborot beruvchi ob'ektiv, jozibador ma'lumoglarning internet sahifalaridan keng o'rin egallashi, O'zbekistonning global axborot makonidagi o'rnining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

1.3. Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlik

"Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf - odatlariga tahdid soladigan, uni ta'siriga olish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar"¹

Bugun dunyo katta jang maydoniga aylanib bormoqda. Bu jangohning quroli so'z, g'oya, mafkura. Har qanday sovuq qurol jahonni u yoki bu darajada jarohatlaydi, jarohatlangan inson hammaga ma'lum bo'ladi. Jarohati tuzalgandan so'ng yana o'z do'stlari safiga qaytadi. Ammo mafkuraviy jangohda yaralangan inson, buzuq mafkura asiri, uning xizmatchisi hatto quliga aylanadi. Davr taqozosi bilan dunyoda oz kuch sarflab mafkuraviy jangohni zimdan boshqarib, mo'may siyosat va moddiy daromadga intiluvchi guruhlar ko'payib bormoqda. Bu jamiyat uchun yangi va havfli muammolardan biriga aylandi. Ularning maqsadi "Zamon bilan hamohanglikda" hech bo'lmaganda qandaydir kutilmagan noan'anaviy uslublar bilan o'z

¹ Karimov LA "Milliy istiqloq g'oyasi asosiy tushuncha va tamoillari" T: "O'zbekiston" 2001 yil 3b.

manfaatlarini ta'minlashdan iboratdir. Axborotlashgan g'oyaviy intervensiya orqali oldin ma'naviy, so'ng siyosiy ustunlikni qo'lga kiritishga intilishda, qolaversa jahon iqtisodiyoti xalqaro moliya va boshqa qismlarda eng keraklisi harbiy siyosiy sohalarda mutlbq ustivorlikni ta'minlashda mafkuraviy jangohning roli oshmoqda.

Qizig'i shundaki, an'anaviy urushda kim aybdor va kim ko'proq talofat ko'rganligini aniqlash unchalik qiyin bo'lmagan va uni "hisob-kitob qilish" mexanizmi ham allaqachon ishlab chiqilgan. Ammo axborotlashtirilgan mafkuraviy intervensiyaning natijalarini "ta roz i pallasiga qo'yish" haqida biron-bir jiddiy so'z aytish mushkul. Shu ma'noda AQSH tadqiqotchisi Maykl Lernerning fikri diqqatga sazovor: "Dunyo haqida amerikacha tasavvurga ko'ra: Amerika yangi dunyo bo'lsa, qolganlarning barchasi eski. Bu uning boshqa davlatlar ishiga bemalol aralashuvini oqlaydi. Shunday qilib, amerikaliklar ongida "Amerika bu haloskor millat" degan fikr shakllantiriladi"¹. Uning yomon oqibatlari ob'ektivlashgan iqtisodiy yoki siyosiy infrastrukturaga Karaganda, birinchi navbatda ma'naviy-ruhiy infrastrukturada namoyon bo'lmoqda. Bu yerda, hatto, ziyon yetgan tomon ham o'zining zarar ko'rganligini ancha muddat o'tgandan keyin anglab yetishi mumkin. Shuningdek, bu borada jahon hamjamiyati hozircha biron-bir xalqaro hukm chiqaruvchi mexanizm yoki tizim ishlab chiqqan emas.

Muammo shundaki, urushning boshqa toifalaridan farqli o'laroq,. mafkuraviy bostirib kirish raqib mamlakat xalqiga ma'naviy ruhiy jihatdan jiddiy zarar yetkazadi. Hatto shunday holat bo'ladiki, talofat ko'rgan mamlakat ma'naviy-mafkuraviy ustunlikka erishgan davlat ta'siriga "o'z xohishi" bilan tushishga majbur bo'ladi. Yetti yot begona ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlarni qabul qilish yoki uzoq davr ichida uning hukmronligi osgida yashab qolish havfi kuchayadi. Natijada uning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy musgaqilligi, suvereniteti shunchaki rasmiyatchilikdan iborat bo'lib, amalda jiddiy mazmun kasb etmaydi. Albatta, bunday noaniq holatning uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolishi yoki o'zaro ziddiyatning "ichga yutilishi" xalqaro barqarorlik nuqtai-nazaridan katta talofatga olib keladi. Olimlar bugungi kunda ayrim davlatlar "siyosiy jihatdan ta'sir etishning ulkan imkoniyatlarini qo'lga kiritilganligi" haqida bejiz aytishmayapti.

Keyingi o'n yilliklar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, "mafkuraviy intervensiya" odatda harbiy kuchni namoyish qilishni taqozo etmas ekan. Urushning boshqa shakllariga qiyosan oladigan bo'lsak, unchalik katta sarf-harajat talab qilishsa-da, g'olib tomon uchun uzoq muddatli geosiyosiy va geostrategik samara keltirishini ta'kidlash joiz. Aksimilliy mohiyatga ega mafkuraviy asorat muhiti shakllantirilmoqdaki, bunda g'olib tomon talofatsiz mislsiz usguvorliklarga ega bo'lishi allaqachon fanda o'z isbotini topgan. To'g'ridan to'g'ri-qurol kuchi bilan bo'ysundirilgan makonda vaziyat va dushman aniq bo'ladi. Dushman har qadamda uni

¹ Лернер М. Развитие цивилизации в Америке. Образ жизни в Соединенных Штатах сегодня. М, 1992, с.85-87.

ta'qib qilib turadi. Bunday sharoitda mag'lub makonda osoyishtalik o'rnatish deyarlik mumkin emas. Iroqdagi vaziyat buning yorqin isbotidir.

Odatda, axborotlashtirilgan urush o'z oldiga muayyan jamiyatda aholining psixik jarayonini siyosiy mo'ljallarini o'ziga moe o'zgartirish vazifasi ham hal etiladi. Amerika bexiovarizmi XIX asrda sirdan turib, psixika -ongni kuzatish va inson psixikasiga ta'sir eta olish borasida psixologik qonunlar chiqa boshlagan. Psixika ob'ektiv olamining sub'ekti imkonisi. Psixika ob'ektiv olamining sub'ekti imkonisi. Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xossasidir. "Tashqi ta'sir kuchlari inson psixkasiga ta'sir ko'rsatmasligi uchun psixologiyada oddiy (tug'ma) vmurakkab (hosil qilingan) reflekslarga asoslangan tashqi reaksiyalarni o'rnatmoq kerak"¹ - degan edi Rossiya psixologi V.M.Bexterev.

Hududda ish olib borayotgan mazhablar, sektalar, turli-tuman qarama-qarshi g'oyalar o'rtasidagi ob'ektiv ziddiyatni hisobga oladigan bo'lsak, qudratli tashqi guruhlar, ayrim mamlakatlar, oshkora terrorchi birlashmalarning aholi ongi va xulq-atvoriga doimiy ta'sirni ta'minlash ishida qulay shart-sharoit yaratish omiliga aylanib qoladilar. Sun'iy ravishda adovat oldirilgan ichki sotsial va madaniyatlararo taranglik o'zaro bir-birini zaiflashtirish va yot qadriyatlarining ijtimoiy ong qatlamlaridan joy olishi uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Bexterev fikridan kelib chiqib shuni aytish kerakki, jamiyatga kirib kelayotgan yot axborotlarni barchasini uzluksiz ravishda analiz sintez qilish va bu ma'lumotlar negizidagi g'oyalarni jamiyat fuqarolariga aynan ommaviy axborot vositalar orqali havola etib borish lozim.¹ Mabodo, bugun insoniyat ushbu o'ta chigal siyosiy jarayonning oldini olmasa uning dahshatli zarari yadroviy qurollarning tarqalib ketishidan ham bir necha barobar oshib tushishi tabiiy. Chora-tadbirlarni paysalga solish, axborotlashtirilgan urushda oldindan borayotgan, ya'ni g'alabaga erishayotgan davlatga tashqarida joylashgan ko'plab hududlar, ijtimoiy faollik makonlari ustida to'la nazorat o'rnatish imkonini yaratadi.

Shuning barobarida sharq falsafasi durdonalaridan birini keltirmokni lozim deb topdik. Unda «Bugun - kechaning okibati, ertaning sababidir», deyilgan. Demak, bu hikmatdan ham ayon bo'lyaptiki, bugun amalga oshirayotgan ishlarimiz nurli kelajagimizga sababchi bo'ladigan asosiy omillardan biridir. Shuning uchun Uzbekistan Respublikasida jamiyat rivoj topishi, taraqqiyotimiz yukealishi yulida bugungi kundagi urinishlarimiz buyuk istiqbolimizga poydevor qo'yish bilan barobardir. Chetdan turib yoki kelib, bizga «aql o'rgatayotganlar»ning esa, erta yo indin izi ham kuriydi. Pekin, ona tuprog'ida ota-bobolarimizning tabarruk xoki bor bu Vatanda biz qolajakmiz. Shunday ekan ona-Vatanimizning kelgusi avlodlarga komil jamiyat sifatida qoldirish uchun «g'arbliklar» emas, o'zimiz qayg'urishimiz, barcha sa'y-harakatlarimizni ana shu maqsad sari safarbar etmogimiz darkor.

¹ Шорохева Е.В “Методология и методы социальной психологии” М.: 1977 93ст

1.4. Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantiruvchi omillar

“Erkin axborot almashinuvi” nazariyasining asoschilaridan biri hisoblangan AQSH MRB asoschisi A.F.Dalles “Agar menga tashqi siyosatning faqatgina bitta tamoyilini tanlab olish huquqi berilganda, men axborotning erkin oqimi printsiptini tanlagan bo’lur edim” deb yozgan edi.

Jahonning boy davlatlarida 1000 kishiga 911 ta radio (447 ta televizor), kambag’al davlatlarida esa 142 ta radio (36 ta televizor) to’g’ri keladi. Radiotinglovchilar sonining 50 mln.ga yetishi uchun 38 yil kerak bo’lgan bo’lsa, televidenie tomosha qiladiganlarning 50 mln. kishiga yetishi uchun 13 yil zarur bo’lgan xolos.

1994 yilda Internet tarmog’iga 3 mln kishi ulangan bo’lsa, 1998 yilda 100 mln. kishiga yetgan, yoki har yuz kunda Internet xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2 barobarga oshgan. Bugungi kunda internetdan foydalanuvchilar soni 4 milliarddan ortiqroq.

Er sharining shimolidan janubga tomon 100 barobar ko’p axborot boradi. Masalan, Yevropa Afrikaga yiliga 855 soatlik eshittirish va ko’rsatuvlarni translyatsiya qiladi, Afrika esa Yevropaga 70 soat, xolos.

Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko’ra “dunyo 80 foiz axborotni London, Parij va Nyu-Yorkdan oladi. Agar bugungi kunda Internet tarmoqlari orqali 250 mingdan ortiq saytlar faoliyat ko’rsatayotgan bo’lsa, ularning 9 mingdan ko’pi terrorizmni targ’ib qilish, 5 yarim mingdan ortig’i suitsid, ya’ni o’z joniga qasd qilishni targ’ib qilayotgan saytlar ekanligini esdan chiqarmasligimiz lozim”¹ deya bejiz aytishmayapti.

Yurtimizda axborot xavfsizligini taminlashda Respublikamiz Prezidenti I. Karimov 2003 yil 11 dekabrda, 562–II-sonli “Elektron raqamli imzo” to’g’risida qaror qabul qildi. Ushbu qaror ijrosiga ko’ra jamiyatimiz fuqarolari global tarmoqdagi saytlardan foydalanish jarayonida rasmiy tarzda ro’yxatdan o’tadilar va milliy pochta manzillariga ega bo’ladilar.

Ma’lumki, har bir inson o’z shaxsiy nuqtai nazari, o’z qarashlari, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko’rsatadi. O’z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o’z aqli doirasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruxiy extiyojidan kelib chiqib o’ziga mos axborotni qabul qiladi, uni tahlil etadi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi, ana shu tahlillar asosida o’zining shaxsiy xulosasiga ega bo’ladi. Natijada o’z iuqtai nazarini shakllantiradi.

Demak, har qanday axborot mazmuni, mohiyati, ta’sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da’vat etishi bilan “shaxs-jamiyat- davlat”

¹ Лернер М. Развитие цивилизации в Америке. Образ жизни в Соединенных Штатах сегодня. - М.,1992 42-46

mutanosibligiga u yoki bu tarzda ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning roli yanada oshadi.

Respublikamiz Prezidenti I. Karimov 2012 yil 21 martda PQ-1730-sonli "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida qaror qabul qildi. Ushbu qarorga ko'ra:

- milliy axborot tizimini shakllantirishni ta'minlash;
- davlat organlarining o'z funktsiyalarini bajarishda tezkorlik va sifatni oshirishga imkon beruvchi faoliyatini avtomatlashtirish axborot tizimlarini yaratish;

- davlat organlari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari ro'yxatini kengaytirish va sifatini yaxshilash, tegishli axborot resurslaridan keng ko'lamda, shu jumladan, qishloq joylarda foydalanishni ta'minlash;

- axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini, shu jumladan axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish holatini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish;

- milliy axborot tizimining axborot xavfsizligini, uning axborot tizimlari va resurslari himoya qilinishini ta'minlash.

- milliy axborot tizimini shakllantirishning yagona texnik siyosatini belgilash va amalga oshirish;

- davlat interaktiv xizmatlarini taqdim etish bo'yicha yagona texnologik yechimning amalga oshirilishida texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- davlat organlari axborot tizimlarining yanada integratsiyalashuvi bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlik kuchayishining natijasi xisoblangan globalashuvni faqatgina ijobiy jarayon deya tariflayotgan globalistlarning fikriga nazar solsak. "Sharq xalqlari jisman sharqda yashasalarda, qalban g'arbni orzu qilishadi va ruxan g'arbda yashaydilar chunki ular g'ab madaniyatiga taqlid qiladilar". Bu kabi qarashlarning negizida nosog'lom g'oyalar borligini har qanday mushoxadali inson albatta tushunib etadi.

Nosog'lom g'oyalar ta'sirida turli kishilar guruxida shaxslararo munosabatlar va o'zaro motiv jarayonlari, milliy etnopsixologiya hamda sinflar psixologiyasi muammolari, milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar, udumlar, aqidalarning shaxs shakllanishidagi roli, jamiyat a'zolari bir-birini idrok qilishlari va tushunishlari bilan bog'liq masalalari o'zgartiradi.

Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, ahloqiy me'yorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda esa yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi.

Xozirgi murakkab ijtimoiy xodisalar sharoitida ommaviy ijtimoiy psixologik

qonuniyatlarni bilishning xamda ularni boshqarishning ahamiyati benixoya kattadir. Ijtimoiy tasavvurlar shaxslararo munosabatlar tizimida shakllanib, ular shaxs xulq atvorini turli ijtimoiy vaziyatlarda boshqarib turuvchi muhim psixologik mexanizmdir.

Insoniyatning kelajakdagi taqdiri va istiqboli xususida o'ylar ekanmiz, ommaviy xulq atvor mohiyati, uning taraqqiyoti, inson va insoniyat hayotiga ta'sir o'tkazishi omillarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, inson faoliyatini maqsadga muvofiq holda yo'lga quyish, yo'naltirish. Umummanfaat atrofida birlashtirish, jamoa va jamiyat ishiga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish, insoniyat hayotini saqlashda mas'ullik, uning taqdiriga taqdirdoshlik hissini shakllantirish.

Ikkinchidan, turli fe'l-atvorga, tabiatga ega bo'lgan, o'z manfaati ustuvorligiga intilayotgan siyosiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash. Urush madaniyatsizligidan - tinchlik madaniyatiga o'tish, davlatlararo va mintaqalararo munosabatlarda bir-biridan qochish emas, bir-biriga intilish kayfiyatini yaratish, jahon muammolarini hal etishga sog'lom g'oyalar berish ruhiyatini shakllantirish.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti cheksiz darajada rivojlanayotgan bir paytda uning keng imkoniyatlarini umumiy taraqqiyot yo'lga safarbar etish kayfiyatining ustuvorligini ta'minlash. Aks holda g'ayriahloqiy va g'ayri insoniy kayfiyatdagi fuqaro qudratli texnologiyalarni jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan g'oyat xatarli maqsadni amalga oshirishga ishlatishi mumkin. Bu, ayniqsa, xalqaro terrorism, narkobiznes, diniy eksterimizm singari global fojealarni boshqarishda, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni chalkashtirishda, bank, moliya kridit tizimini izdan chiqarishda qo'l keladi.

To'rtinchidan, axborot texnologiyasining beqiyos imkoniyatlarini, ulkan qudratini to'lato'kis inson hayotiga tatbiq etish, inson taqdiriga xizmat qildirishni ta'minlaydigan eng zamonaviy va samarali boshqaruv mexanizimini iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va siyosiy sohalarda yuksak madaniyat bilan unumli foydalanish asosida tashkil etish.

Yuqoridagilarning in'kosi o'laroq ommaviy xulq atvor xodisalari jamiyatda muntazam psixologik nazorat qilinishi globallashtirish jarayonida juda jiddiy masala ekanligini tushunib yetish mumkin.

Shu manoda Yurtboshimizning quyidagi fikrlari barchamizni sergak torttirishi tabiiy: "Tabiiyki "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzulq va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik anana va qadriyatlarini, turmush tarzining manaviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi".

"Ommaviy madaniyat" eng avvalo milliy axloqni zaiflashtirib, jamiyatning g'oyaviy

tizimini izdan chiqarishi bilan xatarlidir. Shu manoda, Prezidentimizning 1998 yilda “Tafakkur” jurnali bosh muxarriri savollariga bergan javobidagi “Bazan beozor bo’lib tuyilgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham malum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi”, degan fikrlarida ulkan haqiqat bor. Axborot-psixologik qurol ommaviy axborot vositalari, kompyuter o’yinlari, internet tizimi yordamida inson ong ostiga ta’sir ko’rsatish orqali uning psixikasini o’zgartirishga mo’ljallangan tahdiddir.

Yot g’oyalarni tarqatishning asosiy manbalari: internet, kompyuter manbalari, disklar, adabiyotlar, turli mazmundagi nashrlar, reklama, uyali aloqa vositalari, modalar, Badiiy va hujjatli filmlar, seriallar, musiqa va qo’shiqlardir.

Turli g’oyaviy xurujlar avj olar ekan, ular bizning eng muqaddas va yuksak manaviyatimizga, madaniyatimizga, qadriyatlarimizga, ananalarimizga taxdid solayotgan bir paytda fojealar sodir bo’lmasidan ilgariroq kerakli chora-tadbirlar, kerak bo’lsa loyihalar ishlab chiqishimiz zarur. Shu manoda rus tadqiqotchisi Distervaglerning fikrini esga olsak, “Inson hayotidagi eng asosiy individual qolipga tushuvchi murakkab davri bu uning o’smirlik davridir” SHu sababdan ham biz “Mahallada o’smir yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash” nomli loyihani ishlab chiqdik.

Loyihamizning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar:

-mahallada honadonlarga kirib o’smirlarning nimalar bilan mashg’ul ekanliklarini aniqlash va ularni loyiha markaziga jalb qilish;

-markazga a’zo bo’lgan mahalla o’smirlarini ro’yhatga olish;

-mahalla o’smirlariga psixologiya, xuquqshunoslik, debat dasturlari bo’yicha o’quv tadbirlari o’tkazish;

-axborotni har jixatdan mulohaza qilib, o’z ongida psixologik sintez-analizdan o’tkazishda o’smirlar tafakkurini ruvojlantirish;

-mahalla o’smirlariga qabul qilinayotgan axborotni har jihatdan teran tahlil qilib, axborotning mavzusi, mavzuning g’oyasi, g’oya ortidagi maqsadni anglab yetgan holda to’g’ri xulosa chiqara olishini o’rgatish;

-mahallada oqsoqollar bilan davra suhbatlari (suhbat otalarcha do’stona tarzda) o’tkazish;

-jamiyatda o’z o’rnini topgan ibratli shaxslarni markazga ma’ruzachi sifatida chorlash;

-mahalladagi o’smirlar bilan ularga o’rnak va saboq bo’ladigan maskanlarga borish;

-yoshlar maqsadi va ehtiyojlarini o’zida aks ettirgan birlashmalar bilan konferentsiyalar uyushtirish;

-har bir o’smirning o’z iqtidoridan kelib chiqqan holda o’z kelajagi uchun va vatan taraqqiyoti uchun foydali bo’lgan malum bir sohaga yo’naltirish;

- o'smirlarni jamiyatda olib borilayotgan ulkan islohotlarga tomoshabin emas, dahldor shaxs sifatida yondoshishlariga erishish.

Hozirda har qanday inson, ayniqsa, yoshlar o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida shakllangan dunyoqarashi va mustahkam irodasiga ega bo'lishlarida, turli vayronkor nosog'lom g'oyalari bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi tayziqlariga dosh berishlarida barchamiz unib o'sgan ulug' dargoh mahalladagi ijtimoiy muhitning o'rni beqiyosdir. Mahalladagi ijtimoiy muhitda mahallaning ko'ngilli, fidoiy vakillari mahalla yoshlarini tarbiyasi va xulq-atvorini tizimli psixologik nazorat qilishadi. Ayni paytda har bir xalq, millat yoki har bir shaxs globallashuv jarayoniga kirishar ekan avvalo siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy tajovvuzlardan o'zini himoya qila bilishi hamda bu kabi harakatlar mohiyatiga o'zining teran fikrlari, sog'lom siyosiy psixologiyasi bilan javob bera olishlari zarur. Zero "Mahallada o'smir yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash" loyihamiz jamiyatimizda turli nosog'lom g'oyalarga qarshi o'zining ongida sog'lom g'oyalari bilan kurasha oladigan, vatani oldidagi o'z masuliyatini his qila oladigan mahalla o'smirlarini tarbiyalashda o'zining munosib ulushini qo'shadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

O'rganilgan va tahlil qilingan ishlar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak; axborot-psixologik xavfsizlikni ilmiy amaliy o'rganish uning ijtimoiy zarurat ekanligi? Yoshlar ongiga milliy xususiyatlarni singdirish, axborot istemol madaniyatini singdirish va rivojlantirish ularning o'z millati va o'z xalqini tarixini, kelib chiqish va yaratilish jarayonlarini to'la o'rganish imkoniyatini beradi. Axborot-psixologik xavfsizlik psixologiyani masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bugungi kunda yoshlar ongiga milliy xususiyatlarni singdirish va shakllantirishda asosiy ta'sir etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa psixologiyaning determinizm tamoyili asosida milliy tafsilotning shakllanishi o'z isbotini topdi. Olib borilgan izlanishlar nazariy va amaliy taxlillari shuni ko'rsatadiki, axborot-psixologik xavfsizlik sohasida o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Axborot-psixologik xavfsizlikning o'ziga xosligini tushuntirish, ta'lim tarbiya jarayonida maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab axborot-psixologik xavfsizlik xususiyatlari haqida tushunchalarni singdirib borish, ularni o'z millatiga sadoqatli barkamol inson bo'lib yetishini asosi ekanligini ko'rsatdi. Bugungi ta'lim-tarbiya sohasida axborot istemol madaniyatini shakllantirish va ularning mazmun mohiyatini shaxs ongiga singdirish asosiy ta'limiy va tarbiyaviy vazifa ekanligi o'z isbotini topmoqda.

II BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY SHART-SHAROITLARI

2.1 Mafkuraviy axborot maydonida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati

Prezidentimiz I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"ning uchinchi yo'nalishidagi "Axborot sohasini isloh qilish axborot va so'z erkinligini ta'minlash"ga qaratilgan ma'ruzasida quyidagidlarni e'tirof etdi: bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagi teleradio kanallar tamonidan tayyorlangan ko'rsatuv va eshittirishlar internet global tarmog'i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda. Yurtimizda faqat keyingi o'n yilning o'zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko'payib, bugungi kunda ularning umumiy soni 1200 taga yetdi. Mavjud barcha telekanallarning 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari xisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko'rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda. Yurtimizda internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal suratlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham fikrimizni tasdiqlaydi." Darhaqiqat tavsilotlarni bayon etmoq va uni tushuntirib bermoq, shu orqali inson ruhiyatiga ta'sir etmoq muxim ahamiyat kasb etadi. "So'z atomdan kuchli"- degan edi XX asrning buyuk adiblaridan biri Abdulla Qahhor. Adibning o'tgan asrda aytgan ushbu fikri bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. O'zbek adibi Abdulla Qahhor ushbu fikrlarni aytganida dunyo ahli mafkuraviy poligonlar yadroviy poligonlardan kuchli bo'lishini va mafkuraviy poligonlarning asosiy kuroli so'z bo'lib, butun dunyoni larzaga solishini tasavvur ham qilmagan edi. Tarixdan ma'lumki, tajovuzkor kuchlar biror davlatning yer osti va ustki boyliklariga egalik qilishni xohlab qolsa, ochikdan ochiq yurish qilavergan. Bugun minglab chaqirim masofani bosib o'tib, og'ir qurol-aslahalarni olib borish uchun sarflanadigan mablag' o'rniga arzimagan mablag' bilan "mo'ljalidagi" davlatni bir guruh fuqarolarining tafakkurini zaharlab, ongiga nosog'lom g'oyalar singdirish arzon va qulay uslubga aylanib koldi. Ayrim markazlar axborotlar oqimini yoyish orkali davlatlarda ichki nizolar keltirib chiqarmoqdalar. Bugungi kunda inson tafakkuri uchun kurash avj olib ketdi.

Inson tafakkuri o'zi nima? "Tafakkur - inson akliy faoliyatining, akl-zakovati, ongli hatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak atrofii, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish kuroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr-mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi."¹

Birodarkushlik nizolarini, turli "Baxmal inqilob"larni keltirib chiqarish yuli bilan oxir-oqibat jamiyat ma'naviyatini, madaniyatini, iktisodiy asosini yemirish orqali davlatlar yshg'ol etilmokda. Bu jarayonni shartli ravishda "ovozsiz portlovchi mina"ga o'xshatish mumkin. "Mina" ovozsiz bo'lgani bilan uning oqibatlari juda dahshatli. Bu jarayonlar bizningcha, quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- davlatga turli buzg'unchi axborotlar oqimini yurgizish;

- ekstremistik guruxdar tashkil etish va ulardan foydalanish;

- rasmiy xukumatga qarshi nosog'lom pozitsiyani shakllantirish... Yuqoridagilarning inikosi sifatida so'nggi bosqich pishib yetiladi. Aniqrog'i bosh - boshdoqlik, anarxiya holatlarini keltirib chiqarish natijasida qonli to'qnashuvlar sodir etiladi. Bu kabi holatlarning zamirida muayyan davlat fuqarolarining ongyni, mafkurasini zaharlash va ularni jirkanch g'oyalarga mute' qilish orkali o'z manfaatlariga xizmat qildirish kabi qabix maqsadlar yotadi. Bunday insonlarni biz shartli ravishda "adashganlar" deb ataymiz. Shu o'rinda Prezident I. Karimovning Oliy Majlis sessiyasida so'zlagan nutqini esga olsak: "Men, ey odamzot ogoh bo'linglar, ogoh bo'linglar, ogoh bo'linglar, deb doim kuyib da'vat etaman. Bu gap ehtimol ba'zi birovlar uchun ortiqchadek tuyular..."

Yana takror aytmoqchimanki, bugun ko'pgina joylarda hayotimizda ana shunday beparvolik, faqat o'zini bilish, faqatgina o'zini o'ylash bilan band bo'lish kayfiyatlari paydo bo'ldi"²

Chindan ham oramizda shunday adashganlar bo'lmasligi uchun doimo ogoh bo'lishimiz, o'z yo'lidan og'ib borayotganlarni to'g'ri yo'lga solishimiz kerak. Tajovuzkor kuchlar adashgan insonlarni manqurt darajasiga olib borishi natijasida ularni qo'li bilan davlatni tinch xayotini buzish, davlatni, millatni, milliy an'analarni poymol qilish va moddiy boyliklariga egalik qilish kabi maqsadlarni xohlaydilar. Vaholanki, milliy ma'naviyati poymol bo'lgan, moddiy boyliklariga o'zlari egalik qila olmagan, davlat va davlatning fuqarolari ham oddiy qo'g'irchoqqa aylanadi. Barchamizga ma'lumki, XXI asrning mafkuraviy xurujlari natijasida yuz bergan mudhish voqealar va ularning oqibatlari II jahon urushida yuz bergan voqealardan

¹G'oziev E Tafakkur psixologiyasi. Kirish qism -T.: "O'qituvchi" 1990. 3-bet.

² Karimov I.A "Barkamol avlod orzusi", "Oldimzda yana qanday to'siqlar bor" T.: "O'zbekiston" 1997 y. 232 b.

ham fojealiroq.

Bu o'rinda Prezidentimizning "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega"¹, deb aytgan fikrini yodga olish o'rinli deb o'ylayman. Mafkuraviy poligonlar ta'siridan qanday qutulish mumkin? Mafkuraviy poligonlar hurujidan o'zimizni qanday ximoya qilishimiz kerak? - degan savollar bugun barchani birdek qiynaydi. Ha, mafkuraviy poligonlarning turlari judayam ko'p. Ular turli ko'rinishdadir. Masalan, chet eldan kirib kelayotgan ochiq parnografiya negizida nosog'lom g'oyalar yashiringan xorij teledasturlari, buzuq kayfiyatli ayrim internet saytlarini inson ongini zaharlash uchun foydalanadigan vositalar deb aytishimiz mumkin. Ushbu omillarni "Chet ellik xojatbardorlarimiz" to'g'ridan-to'g'ri vatanimizga olib kelib tarqatayotgani yo'q, aksincha o'z vatandoshlarimiz "O'zlarining beminnat xizmatlarini mo'may pullar evaziga" taklif etmokdalar. Ular arzimagak pullar evaziga o'z vatanlarini, millatini, orini, iymonini qo'yingki sog'lom odam qadrlaydigan barcha bebaho ne'matlarni sotayotganliklarini bilarmikanlar. Shuni unutmaslik kerakki, tajavuzkor kuchlarning oddiy raxbarlaridan tortib oddiy vakillarigacha hammasi boshqa insonlardan o'z maqsadlari yo'lida bir "vosita" sifatida foydalanadilar. Bu "vosita" manfaat keltirmay qo'ygach "keraksiz matodek" uloqtiriladi. Birok, ular muloqot jarayonida, shaxsiy manfaatlari doirasida so'zlashayotganida o'z ichki kechinmalarini aslo sezdirmaydilar. Aksincha o'zlarini oliyjanob, sahovatpesha, xojatbardor sifatida ko'rsatib, sodda odamlarni aldaydilar. Bunday sahovatpesha kuchlar bizning jonajon vatanimizga ham ko'z olaytirgan. Shuning uchun jamiyatimizning har bir fuqarosi qabul qilinayotgan axborotni har jihatdan mulohaza qilib, o'z ongida psixologik sintez-analizdan o'tkazib, axborotning mavzusi, mavzuning goyasi, goya ortidagi maqsadni anglab yetgan holda to'g'ri xulosa chiqara olishi kerak. Ushbu mexanizmni amalga oshirish uchun har bir inson ongida sog'lom siyosiy psixologiyani, soglom siyosiy ruhiyatni shakllantirishimiz, boyitib va rivojlantirib borishimiz kerak deb o'ylayman. Buning uchun ishni avvalo oiladan boshlash kerak. Zero, inson oilada dunyoga keladi. Oilada tarbiyalanadi; mahallada o'sib ulg'ayadi; bog'chada, maktabda kamolotga yetadi.

Demak, jamiyatning to'la qonli a'zosi bo'lib shakllanadi. Shunday ekan, sog'lom siyosiy psixologiyani to'g'ri hakllantirish jarayonini yuqorida aytib o'tganimiz, bolaning oiladan Q mahalla Q bog'cha Q maktab Q oliy o'quv yurti... formulasi asosida olib borishni tavsiya etgan bo'lardik. Buning uchun avvalo ota-onalar o'z farzandlarining porloq kelajagi uchun farzandlariga davlatimizni oqilona siyosati, davlatimizni o'ziga xos pozitsiyasi va davlatimizga qarshi, millatimizga qarshi taxdidlar haqidagi dastlabki tushunchalarni berish kerak. Mahalla fuqarolar yig'ini o'z tasarrufidagi oilalarni psixologik iklimidan bohabar bo'lishi va har bir oila vakillarining faoliyatiga hayrixoh bo'lishi lozim. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan xulosa qilib

¹Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat etngilmas kuch" T.: "O'zbekiston" 2008 y 110 -115 b.

aytish lozimki, yoshlarda yot g'oyalarga qarshi siyosiy-psixologik tafakkurni shakllantirish, bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan mafkuraviy vazifalardan hisoblanadi.

Kompyuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ydi. Axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvishlar tug'dirmoqda. Chunki hozirgi zamon kompyuterlarining eng so'nggi avlodi xar birining protsessorida 80-100 million tranzistor bo'lib, har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo''jizasi tufayli xohlagan kishi Yer yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalarda aloqa o'rnatishi, muammoni laxzalarda hal etishi mumkin. Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiy me'yorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda esa yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr tsivilizatsiyasi axborot xuruji, informatsion-psixologik kurash qiyofasida o'zini namoyon etmoqda.

Insoniyatning kelajakdagi taqdiri va istiqboli xususida o'ylar ekanmiz, axborot texnologiyasi mohiyati, uning taraqqiyoti, inson va insoniyat xayotiga ta'sir o'tkazishi omillarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, inson faoliyatini maqsadga muvofiq holda yo'lga quyish, yo'naltirish. Umummanfaat atrofida birlashtirish, jamoa va jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, insoniyat hayotini saklashda mas'ullik, uning taqdiriga taqdirdoshlik hissini shakllantirish.

Ikkinchidan, turli fe'l-atvorga, tabiatga ega bo'lgan, o'z manfaati ustuvorligiga intilayotgan siyosiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash. Urush madaniyatsizligidan - tinchlik madaniyatiga o'tish, davlatlararo va mintaqalararo munosabatlarda bir-biridan qochish emas, bir-biriga intilish kayfiyatini yaratish, jahon muammolarini hal etishga sog'lom g'oyalar berish ruhiyatini shakllantirish.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti cheksiz darajada rivojlanayotgan bir paytda uning keng imkoniyatlarini umumiy taraqqiyot yo'lga safarbar etish kayfiyatining ustuvorligini ta'minlash. Aks xolda g'ayriaxloqiy va g'ayri insoniy kayfiyatdagi fuqaro qudratli texnologiyalarni jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan g'oyat xatarli maqsadni amalga oshirishga ishlatishi mumkin. Bu, ayniqsa, xalqaro terrorism, narkobiznes, diniy eksterimizm singari global fojealarni boshqarishda, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni chalkashtirishda, bank, moliya kridit tizimini izdan chiqarishda qo'l keladi.

To'rtinchidan, axborot texnologiyasining beqiyos imkoniyatlarini, ulkan qudratini to'la-to'kis inson hayotiga tadbiq etish, inson taqdiriga xizmat qildirishni ta'minlaydigan eng zamonaviy va samarali boshqaruv mexanizmini iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va siyosiy sohalarda yuksak madaniyat bilan unumli foydalanish asosida tashkil etish.

Tig'iz axborotlashgan jamiyatda «shaxs-jamiyat-davlat» aloqadorligi, ularning o'zaro uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash bir muncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgani va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazari, o'z qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruxiy extiyojidan kelib chiqib o'ziga mos axborotni qabul qiladi, uni taxlil etadi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi ana shu tahlillar asosida o'zining shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada o'z nuqtai nazarini shakllantiradi. Bu jarayon bevosita yoshga xos psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Demak, har qanday axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan «shaxs-jamiyat-davlat» mutanosibligiga u yoki bu tarzda ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning roli yana ham oshadi.

2.2 Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllanishi va rivojlanishini o'rganish usullari

"Axborot" tushunchasi bugungi kunda global mohiyat kasb etmoqda. U inson tafakkuriga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, yaxlit insoniyat hayotini va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi.

Aslini olganda axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalaydigan barcha bilimlar sohasida qadimdan mavjud bo'lgan. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchani "aloqa" va "boshqaruv" tushunchalari bilan birga keng qo'llanilishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, ko'paytirish va tarqatish alohida ilmiy sohani - informatika sohasini tashkil etadi. Bu lotinchada tanishtirish, tushuntirish, sharq tillarida esa xabar, axborot ma'nosini bildiradi.

Axborot soxasining tez sur'atlar bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining shiddat bilan rivojlantirilishi komp'yuterlarning yaratilishiga va kishilik hayotining turli sohalarini komp'yuterlashtirishga olib keldi. Bu esa o'z navbatida bugungi kunda g'oyatda tezkorlik bilan o'sib borayotgan "Axborotli jamiyat" nazariyasini maydonga keltirdi.

Kompyuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ydi. Axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvishlar tug'dirmoqda. Chunki hozirgi zamon komp'yuterlarining eng so'nggi avlodi har birining protsessorida 80-100 million tranzistor bo'lib, har soniyada ikki milliardgacha vazifani

bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo'jizasi tufayli xoxlagan kishi Er yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalarda aloqa o'rnatishi, muammoni lahzalarda hal etishi mumkin. Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiy me'yorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda esa yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr sivilizatsiyasi axborot xuruji, informatsion-psixologik urush qiyofasida o'zini namoyon etmokda.

Insoniyatning kelajakdagi taqdiri va istiqboli xususida o'ylar ekanmiz, axborot texnologiyasi mohiyati, uning taraqqiyoti, inson va insoniyat hayotiga ta'sir o'tkazishi omillarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, inson faoliyatini maqsadga muvofiq holda yo'lga quyish, yo'naltirish. Umummanfaat atrofida birlashtirish, jamoa va jamiyat ishiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, insoniyat hayotini saqlashda mas'ullik, uning taqdiriga taqdiridoshlik hissini shakllantirish.

Ikkinchidan, turli fe'l-atvorga, tabiatga ega bo'lgan, o'z manfaati ustuvorligiga intilayotgan siyosiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash. Urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga o'tish, davlatlararo va mintaqalararo munosabatlarda bir-biridan qochish emas, bir-biriga intilish kayfiyatini yaratish, jahon muammolarini hal etishda sog'lom g'oyalarga tan berish ruhiyatini shakllantirish.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti cheksiz darajada rivojlanayotgan bir paytda uning keng imkoniyatlarini umumiy taraqqiyot yo'lga safarbar etish kayfiyatining ustuvorligini ta'minlash. Aks xolda g'ayriaxloqiy va g'ayriinsoniy kayfiyatdagi fuqaro qudratli texnologiyalarni jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan g'oyat xatarli maqsadni amalga oshirishga ishlatishi mumkin. Bu, ayniqsa, xalqaro terrorism, narkobiznes, diniy eksterimizm singari global fojealarni boshqarishda, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni chalkashtirishda, bank, moliya-irodit tizimini izdan chiqarishda qo'l keladi.

To'rtinchidan, axborot texnologiyasining beqiyos imkoniyatlarini, ulkan qudratini to'la-to'kis inson hayotiga tadbiq etish, inson taqdiriga xizmat qildirishni ta'minlaydigan eng zamonaviy va samarali boshqaruv mexanizmini iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va siyosiy sohalarda yuksak madaniyat bilan unumli foydalanish asosida tashkil etish.

Tig'iz axborotlashgan jamiyatda "shaxs-jamiyat-davlat" aloqadorligi, ularning o'zaro uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash bir muncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgani va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, har bir fuqaro o'z shaxsiy nuktai nazari, o'z qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson

sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib o'ziga mos axborotni qabul qiladi, uni tahlil etadi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi va ana shu tahlillar asosida o'zining shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada o'z nuqtai nazarini shakllantiradi.

Demak, har qanday axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan "shaxs-jamiyat-davlat" mutanosibligiga u yoki bu tarzda ta'sir etadi. Ana shu jihatdan Karaganda milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning roli yana ham oshadi.

Umuman olganda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi qanday paydo bo'ldi? Uning hayotiyiligi, insoniyat taqdiriga daxldorligi nimada? Ana shunday savol tug'ilishining o'zi muammoning dolzarbligini va o'ta qeskinligini ko'rsatadi. Bizningcha axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik - bu bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzgunchi g'oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bogliq bo'lgan qadriyatlarga ma'naviy-ruxiy ta'sir, buzgunchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, buzgunchi g'oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orkali tarixan mavjud bo'lgan xalqlar va millatlarni genotsidga olib kelishi muqarrar.

Uchinchidan, tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, jamiyatning siyosiy ongi, huquqiy bilimlar saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy darajasiga qarab jamiyatning taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishi muqarrar.

To'rtinchidan, ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta'sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublarining tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot-psixologik havfsizlik muammosi yana ham keskinlashib qoladi.

Beshinchidan, mazkur atamaning mohiyati shundaki, u inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik takdiri bilan bog'liq bo'lgan global masalalarni ham qamrab oladiki, natijada hozirgacha mavjud bo'lgan global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzgunchisi yoki, aksincha, eng tashabbuskori bo'lib qolishi muqarrar. Bu holatni halqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni hal etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj olishi mumkin bo'lgan holatlarda yana ham havfliroq mohiyat kasb

etadi. Bunday paytda ko'proq an'anaviy siyosiy muvofiqlashtirish tajribalaridan kengroq foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni sharqona munosabatlar ilmi (I.Karimov), mulohazalilik, mushohadalilik, har qanday voqea va hodisalarga aql-idrok yo'rigi bilan yondosh tamoyili ustivor bo'lmogi lozim.

Oltinchidan, axborot-psihologik xavfsizlik tushunchasi ma'lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lida unumli foydalanish, uni boshqarish, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Bizning nazarimizda axborot-psixologik xavfsizlik - bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o'zini o'zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma'naviy-ma'rifiy mezonlar asosida shakllantirish. axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Jamiyatni boshqarish, hozirgi zamon me'yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zarur. Jumladan, siyosiy-huquqiy. tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda boshqaruvning eng maqbul uslubini topishni, bevosita hokimiyat va unga ishonchli, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlashda fuqarolar yaqdolligini, ma'naviy va g'oyaviy jihatdan birligini ta'minlashni taqozo etadi.

Jamiyat shu darajada shakllanishi lozimki, uning a'zolari tigg'iz axborotlar bozoridan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olish. Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo'lgan qadriyatga aylanmog'i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni maqsad etish, jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta'sir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi. farovonlik va urushni targ'ib etuvchi, pornografiya, maishiy buzuvchi. shaxslar mavqeiga, obro'siga va sha'niga salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-ruhiy me'yorlari vujudga keladi.

Axborot psixologik xavfsizlik tushunchasi ana shu tarzda ma'naviy-axloqiy mezonga aylanadi. Erkin shaxs va ozod kishilik jamoasi bo'lgan fuqarolik jamiyati sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikning o'ziga xos tizimlari shakllanmog'i lozim. Bu bevosita OAV faoliyati va unda xizmat qiladigan axborot oluvchi, saqlovchi va tarqatuvchi xodimlarning siyosiy saviyasiga, kasb mahoratiga va eng muximi fuqarolik pozitsiyasiga, jamiyat shiga daxldorlik

tuyg'usiga bog'liq. Zotan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning bosh mezonlari va asosiy tayanchi millatparvarlik, vatanparvarlik, fidokorlik tuyg'usi!

Albatga, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos asoslari bor. Bular:

Birinchidan, tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlanganlik. Zamonaviy -texnika vatexnologiyalar bilan yetarli darajada qurollanish.

Ikkinchidan, mustahkam moddiy-moliyaviy asoslarga ega bo'lish. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan soha xodimlari moddiy manfaatdorligini oshirish.

2.3 Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirishda jamoatchilikka xos qadriyatlarning psixologik ta'siri.

Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi bugungi kunda favqulodda muhim ahamiyatga egadir. Axborot xavfsizligini samarali ta'minlash esa jamoatchilik fikri fenomenini chuqur anglashni taqozo etadi. Jamoatchilik fikrini o'rganish zhtiyoji esa bir tomondan, davlat va jamiyat tuzilmalarining demokratiya tamoyillariga nechog'li asoslanishiga, ikkinchi tomondan esa mavjud empirik manbalarni ilmiy analitik mushohadalash, nazariy qayta ishlash, sintezlash holatlariga bevosita bog'liq, holda shakllanadi. Ana shu ikki jihatlardan biror biri bo'lmasa jamoatchilik fikrini o'rganish ham uni demokratik usullarda shakllantirish ham samarali kechmaydi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongdan xam davlat yoxud tuzumning direktiv qarashlaridan ham, yoki alohida shaxs fikr-qarashlaridan ham farq qiladi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning hosilasi, jamiyat turli tabaqalarining fikr-qarashlari, munosabatlarining real va umumlashma ifodasidir. Jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy-siyosiy holat, turmush tarzi, iqtisodiy o'zgarishlar hususida umumiy yoki bir necha xil munosabatlarga, mavjud xolatlarining kelib chiqish sabablari, harakatlantiruvchi kuchlari, muammoning yechimiga xilof bo'layotgan omillar borasida esa mutlaqo qarama-qarshi hamda o'zgaruvchan karashlarga ega bo'ladi. Jamoatchilik fikrining tez uzgaruvchan tabiati ham uni ijtimoiy ongning faol qismi sifatida xarakterlaydi.

Ayni chog'da, jamoatchilik fikrining o'zgaruvchanlik tabiatiga ta'sir o'tkazish uni muayyan me'yorlarda ushlab tura olish hamda maqsadli shakllantirish davlat, jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash kafolati ham sanaladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, maqsadli ijtimoiy o'zgarishlar, yangilanishlar jarayoni jamoatchilik fikrida namoyon bo'ladi.

Shu boisdan, jamoatchilik fikrini asoslarda, yohud inertsiya tarzda shakllanishiga yul ko'yish kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin. Tarixda sobiq sho'rolar xukumatining so'nggi liderlari tomonidan amalga oshirmoqchi bo'lgan kator loyihalar, ijtimoiy o'zgarishlar islohotining inqirozga yuz tutganligi fikrimizning dalili bo'la oladi.

Shu boisdan xam, islohotlarni amalga oshirish jarayonlarini jamoatchilik fikrida kanday namoyon bo'layotganligi, uni qanday shakllantirish, ommani yangilanishlar ruxida tarbiyalash va eng muhim jihatlardan biri bo'lgan axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari yurtboshimizning diqqat-e'tiborida bo'lib kelayotganligi bejiz emas.

Yaqin o'tmishimizdan ma'lumki, sho'rolar davrida jamoatchilik fikriga xukumatning xech kanday e'tirozlarga o'rin qoldirmaydigan direktiv ko'rsatmalari, maxsus siyosiy-nazariy yo'nalishlar orkali uzluksiz ravishda ta'sir o'tkazilib kelinar edi. Buning uchun esa o'ziga xos ikki bosqichli ta'sir uslubi amalga oshirilar edi. Birinchi bosqichda vertikal ta'sir uslubi, ya'ni eng yukoridan eng quyi bo'g'inlargacha davlat tomonidan rejalashtirilgan xukmron fikr tazyiqi tizimiy tartiblarda mukammal dasturlar asosida amalga oshirilsa, ikki bosqichda gorizontal ta'sir uslublari ishga tushirilib, ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim tizimi muassasalari, jamoat tashkilotlarida «buyurtma» qilingan siyosiy fikr aloxida ijtimoiy qatlamlar ongiga muntazam ravishda singdirilar edi. Ana shu mexanizmni xarakatga keltirish uchun esa davlat tizimi markazlashgan partiya va turli xil tashabbus guruhlarini nikobi ostida muntazam ravishda faoliyat yuritib kelar edi.

Direktiv ko'rsatmalar ta'siri va tazyiqi ostida siyosiy va ma'naviy zabun bo'lgan xalq o'z xarakterida tabiiy ravishda yalpi tazyiqdan ximoya standartlarini shakllantirgan edi.

Bugungi kunda ana shu uslubda, ya'ni jamoatchilik fikriga rejaviy tarzda bevosita ta'sir o'tkazish amaliyoti Xitoy, SHimoliy Koreya, Kuba, Iroq singari mamlakatlarda saklanib turibdi. Ammo, rivojlangan Garb va SHarq mamlakatlarida jamoatchilik fikrining bilvosita uslublari keng ko'llanilib kelmokda. Bu uslub demokratiya tamoyillariga asoslangan bo'lib, asosan ommaviy axborot vositalari, reklama, norasmiy liderlar ta'siri, shou dasturlar va boshqa omillar vositasida amalga oshiriladi.

Fuqaroviy jamiyatda insonning o'z salohiyatlarini yuzaga chiqarish hamda o'z-o'zini himoyalash extiyoji uchun tabiiy ravishda muayyan ijtimoiy-siyosiy guruxlarga a'zo bo'lishi taqoza etiladi. Bu esa insonga o'zi a'zo bo'lgan jamiyat, partiya orqali tashqi voqelikka ijtimoiy ta'sir etish imkoniyatini ham yuzaga keltiradi, Rivojlangan mamlakatlarda jamoatchilik fikrini shakllantirishning umumiy (ommaviy axborot vositalari, televideniya, reklama, shou- dasturlar) va gorizontal (jamoat tashkilotlari, oila, norasmiy liderlar, korxonalar, partiyalar) yo'nalishlari amal qilib keladi. Ayni vaqtda ta'kidlash joizki, axborot xavfsizligini ta'minlash niqobi ostida axborot hurujini globalashtirishga intilishdan iborat shovinistik xarakat ham avj oldirilmoqda. Masalan, jamoatchilik fikrini boshqarish deb nomlanuvchi (Public Relation) tizimi orqali Amerika qo'shma SHtatdarida, jamoatchilik fikrini maxsus shakllantirish borasida 200,000 kishidan ko'proq kishi doimiy faoliyat yuritib keladi. Birgina AQSH mudofaa vazirligi faoliyatini targ'ib etish bo'yicha 15.000 mutaxassis ishlaydi,

Xuddi shunday tizim Angliya, Frantsiya, Italiyada ham mavjud bo'lib, bu mamlakatlarda berilayotgan axborotlarning ta'siri, ularning aholining turli qatlamlari orasida ijtimoiylashuvi ko'lamlarini o'rganishga ixtisoslashgan sotsiolog-psixolog shtatlari amal qilib keladi. Misol uchun, Reno zavodining Parijdagi ilmiy loyihalash va modellashtirish markazi (markazda 2,5 ming kishi faoliyat yuritadi) da 35 kishidan iborat sotsiolog va psixologlar guruhi doimiy ish olib boradi. Shunga o'xshash misollarni boshqa ko'plab yirik mamlakatlar axborot industriyasi ish tajribasi orqali ham ko'rsatish mumkin.

Axborot intervensiyasining bugungi mohiyati totalitar tuzum davridagi davlat va hukmron partiyaning direktiv ko'rsatmalarini aholi ongiga tazyiqiy singdirish uslubidan farq qiladi. Bugungi kunda axborot tazyiqi asosan, bilvosita uslublar orkali, ya'ni, san'at va madaniyat, din, sanoat mahsulotlari, ta'lim tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Axborot hurujlariga qarshi kurash jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fanini rivojlantirishni taqozo etadi. O'zbekistonda istiqlol yillarining ilk davrlaridanoq jamoatchilik fikrini o'rganish va ana shu real extiyojlar asosida xalqning ma'naviy sarchashmalari bulog'ini ochish, o'zligini namoyon etish imkoniyatlarini izlash borasida eng muhm qadamlar qo'yildi. Birinchidan. ana shu ijtimoiy jarayonny ham nazariy ham amaliy o'rganishga mutasaddi bo'lgan sotsiologiya sohasining ilmiy-pedagogik asoslari tarkib toptirildi.

O'nlab o'quv-uslubiy adabiyotlar, manografiyalar, ilmiy to'plamlar nashrdan chiqarildi. Ikkinchidan. sotsiologiya fanining ilmiy-nazariy potentsiali tarkib toptirildi. Hozirgi paytda Respublikamizda 3 ta sotsiologiya fanlari doktori va 6 ta fan nomzodi faoliyat ko'rsatmoqda. Uchinchidan. jamiyatning turli tabaqalari orasida ijtimoiy fikrni o'rganishga ixtisoslashgan professional nodavlat tashkilotlar tizimi shakllandi.

Birgina «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazida o'tgan besh yil mobaynida 103 ta maxsus sotsiologik so'rovlar o'tkazilib 130 mingdan ziyodroq kishi tadqiqotlarga jalb etildi. Agar mamlakatimizdagi o'nlab ixtisoslashgan sotsiologik markazlar, tashkilotlarning mustaqil ravishda o'tkazuvchi so'rovlariga yalpi jalb etilgan aholi soni taxmin etilsa, bu raqam bir necha yuz mingdan oshib ketadi.

O'zbekistonda jamoatchilik fikrini yoyish orqali axborot xavfsizligini ta'minlash holatini umumiy baxolaydigan bo'lsak, bu jarayon bugungi kunda o'zining faol shakllanish bosqichida ekanligiga amin bo'lamiz.

Xo'sh, shakllanish bosqichidan o'tish holatida qanday saboqlarga sotsiologiya fani o'z e'tiborini qaratishi lozim? Birinchidan, axborot xavfsizligini ta'minlash ishlarining tizimiy holatda emasligi, sotsiologik tadqiqot o'tkazish ishlarining pirovard, yakuniy maqsadga qat'iy bo'ysundirilmaganligi, ya'ni axborotga bo'lgan ijtimoiy extiyojlar negizida aniqlangan fikr-xulosalarning tegishli davlat va nodavlat tashkilotlarning amaliy harakat dasturlariga joriy

etilmasligi, ikkinchidan, tadqiqotlarning yetarli professional bilim va maxoratga ega bo'lmasdan o'tkazishning odatiy holga aylanganligi jiddiy muammolardan sanaladi. Misol uchun, mamlakatimizdagi jamoatchilik fikrini o'rganishga ixtisoslashgan «Ijtimoiy fikr» markazidan boshqa biror bir sotsiologik tadqiqot o'tkazuvchi tashkilotda sotsiologiya fani bo'yicha ixtisoslashgan, mutaxassis sotsiolog olimlar ishlamaydi. Uchinchidan, o'tkazilgan so'rov natijalari turli axborot vositalari, radio va televideniya orqali xalqqa yetkazilmasdan ommalashtirilmay kelinmoqda. Buning oqibatida esa jamoatchilik fikrini o'rganish ishi ijtimoiy fikrni shakllantirish pirovard maqsadga xizmat qilmay kelmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov jamoatchilik fikri omiliga jiddiy e'tibor qaratib, mazkur sohaning fuqoralik jamiyatini barpo etish va jamiyatni erkinlashtirish borasida katta imkoniyatlari mavjudligini bir necha bor. ta'kidlaganliklari bejiz emas. Ayniqsa, jamoatchilik fikrini maqsadli shakllantirish, aholi turli tabaqalari ongini ezgulik g'oyalari ruxida tarbiyalash, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq tamoyillarini ustuvor mavqelarga ko'tarishda sotsiologiyaning ahamiyatiga bejiz urg'u berilmadi.

Jamoatchilik fikri masalasida o'z qarashlarini ilgari surgan professor S.Jo'raev mazkur masalaning benihoya muximligini chuqur asoslab beradi¹. («Xalq so'zi» 2002yil, 19- Oktyabr soni) Ayni chog'da professor S.Jo'raev «jamoatchilik fikrini o'rganishni davlat darajasida tashkil etish» taklifini ilgari suradi-ki, bizningcha bunday yondoshuv biroz bahsli xisoblanadi. Negaki, oshkoralik va demokratiya sharoitida jamoatchilik fikrini o'rganishni faqat davlat mas'ulligi doirasiga ko'chirilishi bu jarayonning erkinligini bo'lishi mumkin. SHu o'rinda davlatning o'rni kanday bo'ladi, degan haqli savol tug'ilishi tabiiydir. Davlat oshkoralik va demokratiya sharoitida fuqoroviy jamiyat erkinligini ta'minlash garanti sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonlarda davlatning ishtiroki faqat tashkiliy-huqukiy, texnikaviy, moddiy sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashish bilan chegaralanadi. Jamoatchilik fikrini o'rganish ishlarini esa nodavlat jamoat tashkilotlari, partiyalar, ilmiy muassasalar, sotsiologik markazlar bevosita, to'g'ridan -to'g'ri amalga oshirib boradilar.

Xo'sh, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy fikrni maqsadli shakllantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash borasida qanday potentsiallarimiz mavjud? Hozirgi kunda Respublikamizda 507 ta gazeta va 157ta jurnal ro'yxatga olingan. Poytaxtimizda 5 ta telekanal 30 dan ortiq tahririyat orqali ko'rsatuvlar tayyorlanmokda. Viloyatlarda 10 ta telestudiya faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizning butun xududlari radio to'lqinlari bilan to'la qamrab olingan. Yurtimizda 37 ta radio mahsulotlar tarqatuvchi markazlar kunu-tun ish olib bormokda.

¹ «Xalq so'zi» 2002y, 19- Oktabr

Ayni chog'da O'zbekistan o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida 300 mingdan ortiqroq o'qituvchi pedagoglar 300 mingdan ziyodrok injenerlar hamda oliy ma'lumotli qishlok xo'jalik mutaxassislaridan iborat ziyolilar armiyasi mavjuddir.

Shuningdek mamlakatimizda 12 ming kishidan iborat oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan madaniy-ma'rifiy soha xodimlari faoliyat yuritmoqdalar. Barcha viloyat va tuman hokimliklari qoshida «Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari ishlab turibdi.

Taassufki, mazkur imkoniyatlardan foydalanish holati talab darajasida emas. Masalan, Respublikadagi 6 ming klub va madaniyat uylari, 17 ming kutubxona, 320 ta muzey, 120 ta madaniyat va istirohot bog'larida ishlovchi o'n minglab malakali ziyolilar jamoatchilik fikrini shakllantirishga faol xizmat qilishlari kerak edi. Madaniyat vazirligi tasarrufidagi mazkur tashkilotlar, xamisha ham tumanlardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlari bilan uyg'un xamkorlikda faoliyat yuritmayotirlar. Shunday qilib jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ma'naviyat markazlarida mutaxassis kadrlar, sotsiologlar, bino, mablag' kam bo'lgani holda yuzlab tumanlardagi madaniyat uylari, klublar aholi ongida muntazam shakllantirilishi zarur bo'lgan ma'naviy maxsulotni qayerdan olishni bilmaydilar. Joylardagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati ommaga faqat san'at janrlarini targ'ib etish, yoshlarni badiiy xavaskorlik ishlariga jalb etish bilan cheklanib kelmoqda. Ma'lumki, klub muassasalari, televidenie yoki gazetalardan farq kilib, konkret auditoriya, real aholi guruhlari o'rtasida bevosita ish olib borish imkoniyatlariga egadir. Aslida ular aholi bilan jonli, yuzma-yuz muloqotga kirishish, mafkuraviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ko'ra boshka ijtimoiy ta'sir omillaridan ustunroq mavqega egadirlar. Bu birinchi muammo. Ikkinchi katta muammo bu o'rganilgan ijtimoiy voqelik, jarayonlar to'g'risidagi ijtimoiy fikrni operativ tarzda ommaviy axborot vositalari hamda televidenie orqali muntazam ravishda berib borilmasligidir.

Sotsiologik tadqiqotlar vositasida o'rganilgan jamoatchilik fikrining dahlsizligi masalasining nechog'li muhimligini teran anglash va uni qadriyat darajasida baholash ham muhimdir. Ma'lumki, televidenie yoki boshqa ommaviy axborot vositalari sotsiologik so'rov natijalaridan televidenie yoki gazeta manfaatlari yo'lidagina foydalanishga intiladilar. Jamiyatning holis fikri sifatida sotsiologik so'rov natijalari minbarlari tashkil etilmagan. Uchinchi muammo jamoatchilik fikrini shakllantirishda milliy mentalitet omilidan yetarli foydalanmay kelayotganimizdir. Ma'lumki, o'zbeklar tabiatan jamoaviy xalk bo'lishlariga qaramay liderning ibratiga, raxbarning, obro'-martabali shaxslarning namunasiga qarab ish qiluvchi xalq hisoblanadilar. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda joylardagi obro'-e'tiborli shaxslarga tayanish, ularning ruhlantiruvchi potentsialidan foydalanish imkoniyatiga yetarli darajada e'tibor berilmay kelinmokda. Yana bir muammo bu o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar auditoriyasidir. Sotsiologik kuzatuvlar shundan guvohlik beradiki, hozirgi paytda

mahallalar, tumanlar va xatto ishlab chiqarish korxonalaridagi ma'naviy-ma'rifiy masalalarga bag'ishlangan majlislarda aksariyat doimiy qatnashuvchi bir xil odamlar guruhi tarkib topib qolayotganligi ham e'tiborga olinishi zarur.

Jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmini yo'lga ko'yish maqsadlarida quyidagilar taklif etiladi;

1. Mamlakatimizda jamoatchilik fikrini faqat o'rganuvchi emas, balki uni shakllantirish ishlari bilan xam bevosita shug'ullanuvchi oliy malakali kadrlar tayyorlash ishlarini qo'yish, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi sotsiologiya mutaxassisligini alohida ta'lim yo'nalishi sifatida joriy etish kerakdir.

2. "Iste'dod" jamg'armasi orkali Oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'kituvchilarni rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirishlari, xorijdagi ish tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozim.

3. O'zbekistan Fan va Texnologiyalar qo'mitasi ko'magida axborot xavfsizligini ta'minlash borasida jamoatchilik fikrini shakllantirish mavzuida mualliflar jamoasi ilmiy to'plamini tayyorlash va nashr ettirish maqsadga muvofiq bo'lib, mazkur ishga Fanlar Akademiyasidagi ijtimoiy fanlar sohasidagi yetuk olimlar, oliy o'quv yurtlari professor-o'kituvchilarini jadb etish sohaning rivojiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi axborot xavfsizligini ta'minlash borasidagi jamoatchilik fikri holatini ommaga yetkazayotgan davriy nashrlarga barcha tashkilot va muassasalarni obuna kilishga erishish muhimdir.

Axborot xavfsizligini madaniyat va san'at sohalari orqali O'zbekistondagi minglab klublar faoliyatini joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlari ishi bilan uyg'unlashtirish, yagona ma'muriy boshqaruv Tizimini yo'lga qo'yish kun tartibidagi masala hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalarida sotsiologik markazlar tomonidan o'rganilgan ijtimoiy fikr natijalarini operativ tarzda berib borish aniqrogi taxririyaatlar manfaatlariga buysundirmaslik va ularning mizmunini yaxlitligicha, buzmasdan e'lon kilish, sotsiologik tadqiqotlar yakunlarining dahlsizligi hususida shartnomalar imzolanishi maqsadga muvofiq. Shuningdek ommaviy axborot vositalarida doimiy E'OLON qilib boriluvchi «Sotsiolog minbari» rubrikasini joriy etish zarur. Doimiy rubrika esa sotsiologik tadqiqot natijalarini muntazam rinishda ketma-ket berib borishni taqozo etadi. Bu sotsiologiyaga nisbatan real taklif bozorini yuzaga keltiradi. Fan va soha rivojiga keng yul ochiladi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun ommaviy axborot vositalarining yuqori va quyi bo'g'inlari reytingi monitoringini joriy etish va har uch oyda xolis sotsiologik markazlar ko'magida mazkur iashrlarning jamoatchilik fikridagi ijtimoiy mavqeyi darajasini aniqlab borish hamda matbuotda ommalashtirish ham bugungi kun talablaridan hisoblanadi.

Amaldagi sotsiologik markazlar faoliyatini sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, kasb mahoratlarini oshirish maqsadlarida, shuningdek yangi tuziluvchi sotsiologik markazlarining xayotda amal qilishi uchun doimiy faoliyat yurituvchi Sotsiologiya ilmiy-amaliy markazini tuzish va ana shu markazda attestatsiyadan o'tganidan so'ng ularga amaliy faoliyat uchun ruxsat litsenziyalarini olishlari maqsadga muvofiqdir.

Sotsiologik markazlar faoliyatlarini uyg'unlashtirish maqsadlarida ularning faoliyatlarini koordinatsiya qiluvchi «O'zbekiston sotsiologlari» milliy assotsiatsiyani tuzishga ko'maklashish kerak.

Axborot va mafkuraviy xurujlarga qarshi faoliyat yurituvchi tumanlar va viloyatlar va viloyatlar hokimliklarida ularning mavjud shtatlari ro'yxati doirasida sotsiolog shtatlarini joriy etishni amalga oshirish joizdir.

Axborot xavfsizligini masalasida jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonlarida milliy mentalitetni o'zgarayotgan zamon mentalitetiga muvofiq ravishda o'zgartirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Prezidentimizning «Tafakkur» jurnali bosh muxarririga bergan intervyusida, hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati majlisida so'zlagan nutqlarida va boshqa chiqishlarida yosh avlod tabiatida shijoat, tashabbuskorlik, yangilikka intilish, g'ayratchanlik singari fazilatlarini shakllantirish xususida to'xtalgan edilar. Bu esa millat mentaliteti tarkibida mustaqillik, individual rivojlanishga erisha bilish xususiyatlarini rivojlantirishni xam tabiiy ravishda taqozo etdi. Axborot xavfsizligini ta'minlash, mafkuraviy ta'sirdan ogohlik masalasida faoliyat dasturlarini ishlab chikish va joriy etish zaruratini kun tartibiga qo'yadi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.

Axborot-psixologik xavfsizlikni jamiyat vakillari ongiga singdirishni o'ziga xos jihatlarni tadqiq etar ekanmiz, aniqlangan va olingan tajriba natijalariga asosan ta'kidlash joizki, milliy birlikni muhofaza etish jarayonlari zaiflashgan davlat homiyligida emas, balki asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyolilar, hunarmandlar, dehqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirilib kelindi va quyidagilarda o'z ifodasini topdi;

Bizning fikrimizcha, shaxslar o'zlarining u yoki bu axborot birligiga daxldor ekanlarini, avvalo, jamit oldidagi mas'uliyatini anglash orqali bilib oladilar.

Axborot –psixologik xavfsizlikdagi mansublikni anglash, insonning butun umri davomida saqlanib, tafakkurida ongli xatti-xarakatida namoyon bo'ladi. SHahsning hulq-atvorlariga va boshqa ruxiy xususiyatlariga ta'sir etib turadi.

III BOB. AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

3.1. Jamiyat vakillari ongida vatanga sadoqat xissini shakllantirish dolzarb pedagogik va psixologik muammo sifatida

Milliy ozodlik uchun kurashayotgan millatda milliy ong, millatga nisbatan millatchilik ko'rinishida namoyon bo'lishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Zero, milliy o'zini o'zi anglashning dastlabki bosqichlarida o'z millatining tarixi, buyuk shaxslari bilan faxrlanish, uni ko'klarga ko'tarish, o'z yozuvchilari bo'lgan millatga qarama-qarshi qo'yish tarzida bo'ladi. Buni biz barcha milliy ozodlik harakatini boshidan kechirgan xalqlar tarixida ko'rishimiz mumkin. Hususan, XIX asr boshlarida ijod qilgan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, A. Qodiriy, Avloniy kabi ijodkorlar faoliyati bunga misol bo'la oladi, XX asrning 80-yillar oxiri sobiq Ittifoq atalmish imperiyaning qulashi arafasida buyuk bobomiz Amir Temur nomining tiklanishi, milliy bayroq misoli adlda ko'tarilishi, shu bayroq ostida millatni birlashtirish uchun harakat qilinishi bejiz emas edi. Buning uchun bobomiz, hayoti va faoliyati, qahramonliklari xaqida yozilgan kitoblar chop etila boshlandi. Tarixiy haqiqat tiklanib, uning jahon tarixidagi o'rniga berilgan baholar bilan millat tanishtirildi millatning egilgan sha'ni, g'ururi tiklana boshlandi. Alloma bobolarimiz Buxoriy, Yassaviy, Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Zamahshariy kabilarning nomlarini xalqqa kaytarilishi, ularning kitoblarini chop etilishi kabi jarayonlar millatning o'zini o'zi tanishini yuqoriroq bosqichga olib chiqdi.

Amerika siyosiy – psixologiyasida bixeviorizm, sirtidan turib inson psixikasini kuzatish va xulq – atvoriga ta'sir etish 19 asrda rivojlana boshlagan. Amerika bu borada ko'plab qonunlar ham ishlab chiqqan. 21 asrga kelib bu kabi qonuniyatlar shu qadar ta'sirga ega bo'ldiki davlatlar o'rtasidagi sovuq qurolli to'qnashuv jangahlari axborot – psixialogik jangohlariga aylandi. Axborotni, voqealikni turli yo'sinda bayon etish, tezkor tarqatish va bu orqali mo'ljaldagi davlatning ongli shaxslari ruhiyatini mag'lub qilish ayrim manfaatdor kuchlar uchun qulay usulga aylandi. Bu jarayonda biz buyuk mutafakkirlarimiz qarashlariga teran tafakkur bilan e'tibor qaratishimiz kerak. Amerika bixeviorizimi 19 asrda rivojlangan bo'lsa 14 asrda Abu Mansur as-Solihiy o'zining “Yatimat at-daxr fi maholisi ahli asr” (“Zamonamiz ahlining fozil kishilari”) nomli asarida “Tafsilotni quloq ila tinglamoq odamiylikdir, tafsilotni idrok ila anglamoq insoniylikdir” deya ta'kidlab o'tgan. 15 asrda hazrat Alisher Navoiy “Oldig'a qo'yg'onni yemak hayvonni ishi, og'zig'a kelg'anni demak nodonni ishi” deya shaxs ruhiyatiga, idrokiga tavsif bergan. Shunday yuksak tafakkurli ajdodlarimizning munosib vorislari sifatida glaballashuv sharoitida axborot – psixologik havsizlikni shakllantirishda har bir shaxs qabul qilinayotgan axborotni har jihatdan mulohaza qilib, o'z ongida psixologik sintez – analizdan o'tkazib, axborot, axborotning mavzusi, mavzuning g'oyasi, g'oya ortidagi maqsadni anglab

yetgan holda to'g'ri xulosa chiqara olish kerak. O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umummilliy manfaat va umummilliy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarni chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda. Ana shu hayotiy ehtiyojdan kelib chiqib axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratishning quyidagi usullarini qo'llash zarur deb hisoblaymiz:

Birinchiidan, sotsiologik yo'nalish. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotida axborotning ijtimoiy voqelik sifatidagi roolidan kelib chiqib jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy ong yo'nalishlari, ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o'rganishni yo'lga quyish kerak. Aholi turli qatlamlari qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikrlash tarzini aniqlab borish zarur.

Ikkinchiidan, statistik yo'nalish. Ko'pmillatli mamlakatda, xususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonda millatlararo va dinlararo mojarolarni, turli siyosiy manfaatlar va buzg'unchi g'oyalar ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan siyosiy nizolarni o'rganib borish. Bu borada aniq hisob-kitoblarga, tahliliy echimlarga ega bo'lish.

Uchinchiidan, siyosiy konfliktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot-psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg'unchi g'oyalar inson ongi va tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojarolar kelib chiqishi mumkin bo'lgan manbalarni o'rganish, omillarni aniqlash hamda uning natijasida jamiyatda shakllanishi mumkin bo'lgan jamoatchilik fikri, siyosiy qarashlari, ruhiyati - ijtimoiy-siyosiy psixologiya izchil ravishda o'rganib borilmog'i lozim.

To'rtinchiidan, mantiqiy-tizimiy va funktsional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot-psixologik ta'sir axborot siyosati tizimi va vositasining muhim qismi sifatida baholanishi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondoshib, ilmiy-taxliliy, nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta'sirida shakllanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtai nazaridan izchil o'rganilmog'i, uning predmeti va metodologiyasini ishlab chiqish muhim bo'lib qoldi.

Beshinchiidan, axborot tizimida milliy istiqloq g'oyasining ustivorligi. Har qanday fuqaro axborot bozorida "mahsulot" tanlash jarayonida uning qalbida, ruhiyatida, kayfiyatida, fe'l-atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi xatti-harakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustivorligini ta'minlash.

Albatta, O'zbekistonda mustaqillikning o'tgan 15 yili mobaynida ommaviy axborot kommunikatsiyasi sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo, har bir fuqaroning so'z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlandi. Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi bir qator qonunlar yaratildi va amalda qo'llanilmoqda. Mustaqil

nashrlar soni keskin ko'paydi. Bularning hammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o'ziga xos taraqqiyotidan dalolat beradi.

Shu bilan birga O'zbekiston jahon axborot tizimidan foydalanishning eng zamonaviy va tezkor texnologiyasini joriy etdi. Bu nafaqat davlat va hokimiyatning, rasmiy idoralarning, balki nodavlat-notijorat tashkilotlar, hatto, alohida fuqarolarning dunyo axborot bozoriga bemalol kirishi va undan bemalol foydalanishi imkonini beradi.

Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimi bevosita ijtimoiy xavf, milliy tahdid, taraqqiyotga to'g'anoq sifatida baholanmog'ini va unga qarshi kuchli mexanizmni yaratishni taqozo etadi. Bunda davlat axborot siyosati alohida ahamiyatga ega. Albatga, O'zbekistonda axborot tizimi, uni boshqarish, undan foydalanish borasida qator qonunlar bor. Jumladan, axborot olish kafolatlari, elektron pochta, elektron raqamli imzo to'g'risidagi qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Biroq bular yetarli emas. Chunonchi, zamonaviy axborot texnologiyalari tobora takomillashib, rivojlanib, axborot olish, saqlash, uni ishlash va tarqatishning shakllari, usullari, uslublari tobora kengayib bormoqdaki, bu butun ko'lami bilan amaldagi qonunlarda o'z ifodasini topmagan.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. O'zbekistonda hozirgi mavjud ijtimoiy fikr, jamiyatning umumiy siyosiy-ma'rifiy darajasi zamonaviy axborot xurujiga va uning shiddatiga dosh berolmaydi. Aniqrog'i, uning butun ko'lamini, mohiyatini, axborot ostidagi yashirin g'oyani va axborot tarqatuvchi manba maqsadini etarli darajada baholay bilmaydi. Natijada axborot bozorida mavjud bo'lgan asosli, jiddiy, fikrlashga chaqiradigan, taraqqiyotga yordam beradigan axborotlarni etarlicha qabul qila olmaydi. Aksincha engil-elpi, shov-shuvli, hayotimizdagi mavjud o'tkinchi kamchilik va nuqsonlarni bo'rttirib ko'tarib chiqqan xabarlariga berilib ketadi. Ularni tez qabul qiladi. Natijada jamiyatda yalpi o'rtacha kayfiyat, ozurda ruhiyat paydo bo'lishiga imkoniyat yaratiladi. Bunday vaziyatda milliy axborot tizimini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uning faoliyatini takomillashtirish, ta'sir doirasini oshirish zarur bo'lib qolmokda. Bu muammolarni hal etish uchun quyidagilarga e'tibor bermoq lozim:

- Ommaviy axborot vositalarida hozirgacha shakllangan til, uslub va ifoda usulini o'zgartirish lozim. Jozibador, ayni paytda hayotga yaqin, eng oddiy fuqaro qalbi va ruhiyatiga mos keladigan xalqchil ifoda usulini shakllantirish lozim. Boshqacha qilib aytganda, axborot makonini hayotga, odamlarga, ularning kundalik tashvishu iztiroblariga, yangilanayotgan jamiyat muammolariga yuksak mahorat bilan moslashtirish kerak.

- Jamiyatni, uning har bir a'zosini axborot vositalariga qiziqishini orttirish yo'li bilan axborot orqali yuzaga kelayotgan ruhiy tanglik, ma'naviy ozurdalik, boshqacha qilib aytganda, buzgunchi g'oyalarga ergashish kayfiyatining ommalashib ketishiga chek qo'yish lozim. G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat tamoyilining ustivorligiga

erishmoq kerak.

- Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida fuqarolik jamiyati institutlari - jamoat tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular so'zi va fikrining ta'sirchanligini oshirish qerak. Toki har qanday umummanfaat va umumtaraqqiyot yo'lida aytilayotgan so'z har bir tinglovchi qalbiga kirsin, ongiga singsin. Uni rag'batlantirsin, ruhlantirsin, milliy yakdillikka, milliy birlikka da'vat etsin.

Albatta, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biri to'g'ridan-to'g'ri har qanday buzg'unchi g'oyalarga, jamoatchilik fikrini buzadigan xabarlariga asosli tarzda qarshi tura bilish. Ikkinchi tomondan ayni ana shu qarshi targ'ibot mexanizmini samarali boshqarishni ta'minlash.

Hozirgi zamon axborot tizimida shunday xodisalar mavjudki, unga qarshi chiqish u yoqda tursin, uni boshqarish, tartibga solish ham mumkin bo'lmay qolmokda. Demak, bunday sharoitda eng samarali usullarni ishlab chiqish zarur. Jumladan:

Birinchidan, jamoatchilik fikrini o'zgartirayotgan, chalgitayotgan vayronkor axborotlar tashkaridan, o'ziga xos himoya qalqoniga ega bo'lgan makonlardan qelayotganligini nazarda tutib, axborot tarqatish borasidagi mojarolarga yo'l quymay, ularga yuqsak siyosiy va kasbiy madaniyat orqali yondoshish. Befarqlik, sukut saqlash, kayfiyatiga barham berib, milliy oriyat, milliy nafsoniyat bilan bog'liq holdagi targ'ibotchilik imkoniyatimizni namoyon etish yo'lidan borish.

Ikkinchidan, shuni nazarda tutish kerakki, har qanday hujumkor va buzg'unchi g'oyaga qarshi o'z vaktida, mo'ljalni aniq olib munosabat bildirishda ehtiroslarga berilmaslik, ortiqcha shov-shuvlarga yo'l quymasdan siyosiy vazminlik va bosiqlik, ayni paytda kuchli ta'sir o'tkazish usullarini o'zlashtirmoq lozim.

Axborot sohasida axborot xuruji qizg'in avj olgan bir paytda ayni ana shu xurujlar mohiyatini, uning manbalarini, rivojlanish omillarini, ilmiy til bilan aytganda konfliktion jihatlarini chuqur o'rganish lozim. Buzg'unchi va xujumkor axborotlar maqsadi, iddaosi, ularning tagida yotgan manfaatlar qanchalik to'g'ri o'rganilsa, ularga shunchalik to'g'ri va ishonchli zarba berish mumkin bo'ladi.

3.2. Empirik tajribalar olib borish va natijalarni taxlil qilish.

XXI asr tsivilizatsiyasi oqibatida insoniyat hayoti axborot-psixologik taxdid quchayotgan jarayonni boshdan kechirmoqda. Bu, ayniqsa, rivojlanish yo'lga chiqib olgan O'zbekistonday yosh mustaqil davlatlarga kuchli salbiy ta'sir o'tkizishi mumkin. Chunki har qanday asossiz, buzgunchi g'oya o'tish davriga xos bo'lgan juz'iy kamchiliklar va o'tkinchi ijtimoiy-iqtisodiy nuqsonlarni bo'rttirib ko'rsatib, jamoatchilik fikrini chalg'itishi, uning

istiqlolga ishonchini susaytirib yuborishi mumkin. Zotan, bugun jahon siyosati tobora madaniylashib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar insoniylashib, davlatlararo manfaatlar ustuvorligi yumshayib borayotgan bir paytda ommaviy qirg'in kurollaridan foydalanish, termo-yadro xavfini kuchaytirish, atom, vadorod, turli biologik, bakteriologik va kimyoviy aslahalardan foydalanish ibtidoiy hodisaga aylanib qoldi.

Millatlarni yo'q qilish, ularning ildizini qirqib tashlash, milliy xususiyatlari, an'analari va urf-odatlarini barbod etish yo'li bilan mamlakatlarni zabt etish tsivilizatsiyaviy hodisaga aylandi. Bunday maqsadni amalga oshirishda axborot tizimidan foydalanish keng avj olib bormokda. Mustaqil O'zbekiston esa ana shu jarayonda o'zining yangidan-yangi imkoniyatlarini, aqliy salohiyatini, o'zini o'zi himoya qilish va har qanday tajovuzlarga qarshi tura olish iqtidorini namoyon etmoqda. Biroq bu etarli emas. Aniq natijalarga erishish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb o'ylaymiz:

- insonning shaxs va fuqaro sifatidagi imkoniyatlarni ruyobga chiqarish va uni shakllantirish;

- insonning o'zini o'zi himoya kila olish instinktini, o'zini-o'zi boshqarish salohiyatini shakllantirish;

- alohida odamlar, guruhlar, qatlamlararo munosabatlarni yana ham barqarorlashtirish;

- jamoalar birligini, umumiy xonadon - yaxlit mamlakat takdiri uchun javobgarlik hissiini kuchaytirish;

- millatidan va diniy e'tiqodidan kat'iy nazar O'zbekiston fuqarosi bo'lgan har bir shaxsning kelajak uchun mas'ulligini ta'minlash;

- kelib chiqishi mumkii bo'lgan mojarolar, kelishmovchiliklar asoslarini, yo'nalishlarini, ularning rivojlanish omillarini va dinamikasini doimiy tarzda, uzluksiz ravishda o'rganib borish.

Ana shu tarzda, albatta, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning O'zbekiston tajribasi takomillashib bormoqda. Bu bevosita axborot xuruji avj olayotgan, axborot tarqatish texnologiyalari tobora takomillashib, uning usul va uslublari yangilanib borayotgan bir paytda O'zbekiston ayni ana shu tsivilizatsiyaviy jarayonning eng samarali, eng insonparvar usullaridan yana ham kengroq foydalanish imkoniyatlarini kidirmoqda.


Mamlakatimiz Prezidenti xalqimizni ozod va obod jamiyat barpo etish ishlariga qat'iy azmu karor, shijoat bilan kirishishga da'vat etmoqda. Buning uchun esa ko'pgina masalalar yechimi o'zimizga bog'lik, ekanligini teran aniqlamog'imiz, yeng shimarib, g'ayrat bilan ishga kirishmog'imiz lozim.

Tadqiqot natijalari: Globallashuv sharoitida axborot – psixologik xavsizlikni shakllantirish masalalari borasida Andijon shaxar xalq ta'limi muassalari faoliyatini metodik


ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi 3 – umumiy o'rta ta'lim maktabining, Andijon shahar “8 – son”, “9 – son” mahalla fuqarolar yig'inlari tasarrufidagi shaxslar orasida ijtimoiy – psixologik, kommunikativ metodologik ma'lumotlar berdik. Tadqiqotlarimizni o'smir yoshlar bilan ularga o'rnak va saboq bo'luvchi maskanlarga bordik. Maktab o'quvchilari va mahalla o'smirlaridan tadqiqotlarimizni o'tkazishdan avval ularni axborot ta'minlash borasidagi kommunikatsion bilimi, siyosiy – psixologik dunyoqarashini aniqlashda so'rovnoma va testlar olgan edik. Tadqiqotlarimizdan so'ng ulardan tahliliy testlar oldik. Tadqiqotlarimiz tahliliy natijalariga ko'ra maktabning yettinchi va to'qqizinchi sinf o'quvchilari va mahalla o'smirlarining axborotni aniq maqsad asosida ta'minlashi, kommunikatsion bilimi, siyosiy – psixologik dunyoqarashida quyidagi ijlbiy samarali natijalarga erishdik.

Tadqiqot sub'ekti bo'lgan shaxslarning axborot istemol madaniyati bo'yicha o'sish ko'rsatkichlari:

Oliy ma'lumotli bo'lgan shaxslarda



O'rta maxsus ma'lumotli bo'lgan shaxslarda



Uchinchi bob bo'yicha xulosa.

Globalashuv sharoitida xalqlar ma'naviyatiga singdirilayotgan omillar bir qarashda yaltiroq ko'rsada, aslida bu omillarning negizida chirindi, jirkanch g'oyalar yashiringan bo'lishi extimoldan yiroq emas. SHuning uchun jamiyatimizning har bir fuqarosi qabul qilinayotgan axborotni siyosiy jihatdan mulohaza qilib o'z ongida psixologik analizsintezdan o'tkazib axborotni mavzusi, mavzuning g'oyasi, g'oya ortidagi maqsadni anglab yetgan xolda to'g'ri xulosa chiqara olishi kerak. Ushbu mexanizmni tugri yulga kuyish uchun xar bir inson ongida soglom siyosiy ruxiyatni shakllantirishimiz, boyitib va ruvojlantirib borishimiz kerak deb uylayman. Ushbu mexanizmni amalga oshirish uchun ishni avvalo oiladan boshlash kerak deb o'ylayman. Zero inson oilada tarbiyalanadi, maxallada o'sib ulg'ayadi, bog'chada, maktabda kamolga yetadi. Demak jamiyatni to'lik azosi bo'lib shakllanadi. Shunday ekan axboriy psixologik xavfsizlikni shakllantirishda yuqorida aytib o'tganimiz bolaning to oiladan Qbog'chaQmaktabQmahalla oliy yuquv yurti... formulasi asosida olib borishni tavsiya etgan bo'lar edik. Buning uchun eng avvalo ota-onalar o'z farzandarining porloq kelajagi uchun farzandlarining ruhiyatini o'rgangan xolda asosiy rejalar tuzishi kerak. MFY o'z tasarufidagi oilalarning psixologik iqlimidan boxabar bo'lishi va har bir oila vakillarining faoliyatiga hayrixox bo'lishi lozim. O'quv muassasalarda, barcha nashriyotlarida televideniya radiolarda hodimlar yetarli darajada psixologik va siyosiy saviyaga ega bo'lish kerak. Shunda ishonchimiz komilki, biz yoshlar yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "fikrga qarshi fkr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat" bilan kurasha oladigan kelajagi buyuk davlatning munosib vorislari bo'lib yetashamiz.

XULOSA

Olib borgan tadqiqotlarimiz shunday taxminni asoslashga izn berdiki, globallashuv jarayonida axborot - psixologik xavfsizlikni shakllantirish shaxs ruxiyatidagi og'ish va zo'riqishni shuningdek fiziologik muammolarni oldini oladi. Jamiyatdagi shaxslarda kommunikativ sog'lom dunyoqarash shakllanishiga zamin yaratadi. Tajriba – eksperimental va nazorat diagnostik ish davomida, shaxs tafakkurida axborot - psixologik xavfsizlikni shakllantirish, shaxs ruxiyatida salbiy ta'sirlardan saqlashga qaratilgan omillarning ijobiy dinamikasini ta'minlashga qaratilishi zarurligi xaqidagi taxminimiz isbotlandi.

Ish davomida qo'yilgan maqsadimizga erishdik. Axborot – psixologik xavfsizlik jamiyatda shaxslararo nizolar, nosog'lom fikir va farazlar vaziyatidagi korreksion ishi mazmunini aniqladik, uning shakl va metodlarini ishlab chiqdik. Tadqiqotimiz asosida biz shunday xulosaga keldik.

1.Jamiyatda yashayotgan shaxslardagi ruxiy og'ishlar, nizolar ob'ektiv asosga ega bo'llib, shaxslar guruxlari ijtimoiy psixologik xususiyatlari qanday axborot maydonida ekanligiga bog'liq. Globallashuv jarayonida to'xtovsiz kirib kelayotgan axborotlar salbiy tasirini kamaytirish kerak.

TAVSIYALAR

Bizningcha, globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish chuqur amaliy va nazariy uslublarni ishlab chiqishni talab etadi. Shuningdek shaxs tafakkurida kerakli axborotni tanlash va axborotni to'g'ri idrok etish mexanizmini vijudga keltirishga yo'naltirilgan metodlar chuqur nazariy taxlilga muxtoj.

1.Tadqiqotchilarni diqqat e'tibori tafakkurga salbiy ta'sir etuvchi ma'lumotlar ta'sirida shaxs ruxiyatidagi emotsional va kognitiv o'zgarishlarga qaratilishi kerak.

2.Axborot xurujlar tasirida psixik o'zgarishlarning ichki mazmunini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar zarur.

3.Bizning diqqat markazimizdan tashqarida qolgan muxum muammolardan biri – kommunikatsion jarayon qatnashchilarida shakllanadigan ichki shaxslilik va shaxslararo yangi tuzilmalardir.

4. Axborot- psixologik xavfsizlikni shakllantirishning turli shakllari va metodlarini

taxlil qila turib biz shunga amin bo'ldikki, ma'lumotlar qabul qilish va uzatishga mo'ljallangan ommaviy maskanlarda (internet kafelar) ma'lumotlarni psixologik sintez-analizdan o'tkaza oladigan mutaxassis bo'lishi shart.

5. Fikriy tashqi tasir kuchlari inson psixikasiga ta'sir ko'rsatmasligi uchun murakkab (xosil qilingan) reflekslarga asoslangan tashqi reaksiya mexanizmlarini o'rnatuvchi metodlarni ishlab chiqish kerak.

6. Jamiyatga kirib kelayotgan yot axborotlarni barchasini uzuluksiz ravishda analiz sintez qilish va bu ma'lumotlar negizidagi g'oyalarni jamiyatdagi shaxslarga aynan ommaviy axborot vositalari orqal xavola etib borish lozim.

7. Shaxs ruxiy kechinmalarini ijtimoiy borliq qadriyatlariga bog'lovchi, ochiq axborot kommunikatsiya tizimida insonning axborot taxdidlarini baxolash va xavfsizlikni taminlovchi loyihalar ishlab chiqilishi kerak.

8. Globallashuv jarayonida kechayotgan axborotlar oqim kishilarning kadriyatlarga bo'lgan munosabati, ishonchini o'zgartirmokda. Ular bilan bog'lik extiyojlar, talablar, qiziqishlarning ham o'zgarib borishiga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda fanlarni o'qitishda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishini amaliy jixatdan o'quvchilarga yetkazish asosiy vazifalardan biriga aylanishi zarur.

9. Umuminsoniy qadriyatlarga oid mavzularni targ'ibot qilishda yurtimiz svilizatsiyasi tarqqiyoti va madaniyati rivojining asosiy davrlari, yutuqlariga «Avesto», «Qur'on», Xadislar kabi iloxiy qadriyatlarning muxtasar tizimlari bayon etilgan manbalarga, Al Xorazmiy, Al Farobiy, Al Beruniy, Ibn Sino, Al Buxoriy, At Termiziy, Axmad Yassaviy va Naqshbandiy, Abduraxmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Boboraxim Mashrablarning buyuk meroslariga aoslanmoq lozim.

10. Ommaga yo'naltirilayotgan axborotlar shaxs psixikasiga salbiy ta'sir etmasligi uchun jamiyatda yashayotgan har bir shaxs qabul qilinayotgan axborotni har jihatdan mulohaza qilib, o'z ongida psixologik sintez-analizdan o'tkazib, axborotning mavzusi, mavzuning g'oyasi, g'oya ortidagi maqsadni anglab yetgan holda to'g'ri xulosa chiqara olishi kerak. Ushbu mexanizmni amalga oshirish uchun har bir inson ongida sog'lom siyosiy psixologiyani, sog'lom siyosiy ruhiyatni shakllantirishimiz, boyitib va rivojlantirib borishimiz kerak deb o'ylaymiz. Buning uchun ishni avvalo oiladan boshlash kerak. Zero, inson oilada dunyoga keladi. Oilada tarbiyalanadi; mahallada o'sib ulg'ayadi; bog'chada, maktabda kamolotga yetadi. Demak, jamiyatning to'la qonli a'zosi bo'lib shakllanadi. Shunday ekan, sog'lom siyosiy psixologiyani to'g'ri hakllantirish jarayonini yuqorida aytib o'tganimiz, bolaning oiladan Q mahalla Q bog'cha Q maktab Q oliy o'quv yurti... formulasi asosida olib borishni tavsiya etgan bo'lardik. Buning uchun avvalo ota-onalar o'z farzandlarining porloq kelajagi uchun farzandlariga davlatimizni

oqilona siyosati, davlatimizni o'ziga xos pozitsiyasi va ahborot oqimidagi xurujlar haqidagi dastlabki tushunchalarni berish kerak. Mahalla fuqarolar yig'ini o'z tasarrufidagi oilalarni psixologik iqlimidan bohabar bo'lishi va har bir oila vakillarining faoliyatiga hayrixoh bo'lishi lozim.

Psixolog mutaxassisning bu boradagi faoliyati bizning ishimizda istiqbolli amaliy natijasini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.: "O'zbekiston" 2008 yil
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.: "O'zbekiston" 2008 yil
I.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va isloh etishdir.
"Xalk so'zi gazetasi", 2005 yil, 29 yanvar.
3. I. Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-jild. Toshkent, 1997 yil.
4. I.A. Karimov. Demokratik o'zgarishlar — jamiyatimiz yangilanishi
27 asosi. Diplomatya korpusi rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va
Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda so'zlangan
nutq. 1996 yil 27 dekabr.
5. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi.-T.: "O'zbekistan", 1997 yil
6. I.Karimov, yangicha fikrlash va ishlash —davr talabi. 5-jild–T.: "O'zbekiston", 1997 yil
7. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,
barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. G'G' I. Karimov.
8. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.-T.: "O'zbekiston", 1998 yil,
9. I.Karimov. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-kudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy
irodamizga bog'liq.-T.: "O'zbekiston", 2004 yil,
10. I.Karimov. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy
irodamizga bog'liq. T.: "O'zbekiston", 2004yil
11. I. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. "O'zbekistan", Toshkent: 1998 yil
12. I.Karimov. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida Toshkent, "Uzbekiston" 1998 yil.
13. I. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: 1996,
14. I.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-jild. –
Toshkent: "O'zbekistan", 1997 yil.
15. I.Karimov. Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti davlatlari rahbarlarining oliy darajadagi
ikkinchi uchrashuvda so'zlangan nutqi. 1993 yil, iyul.
16. I. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T:
"O'zbekiston".
17. I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.-Toshkent: "O'zbekiston"

- nashriyoti. 1997 yil.
18. I. Karimov. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. O'zbekiston Konstitutsiya 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda so'zlangan nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2006 yil 8 dekabr.
 19. A. Begmatov. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi T.: "Sharq", 2000.
 20. M.Safarov "Solibiy xazratlarining maktabi" "Tafakkur" T.: "Sharq" 2002
 21. V.M.Karimova "Ijtimoiy psixologiya asoslari" T.: "O'qituvchi" 1994
 22. E.V.Shoroxeva "Metodologiya i metodi sotsialnoy psixologii" M.: 1977
 23. M.Lerner Razvitie tsivilizatsii v Amerike. Obraz jizni v Soedinennix Shtatax segodnya. M.:1992
 24. L.A.Petrovskaya "Komponentnost v obshenii" Sotsialno psixologicheski trening. M.: 1989
 25. Zapasnik M. Loj v politike G'G' Filosofskie nauki. 1991. №8,
 26. "Polis" jurnali, Moskva, 1994 yil, 1-son,
 16. Alimov X. Milliylik va ijtimoiy ruxiyat. T. 1992 y.
 17. Mamatov M. Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari. T. 1999 y.
 27. Xudoyberdiev I. Islom, shaxs va milliy psixologiya. T. 1999 y
 28. Sh.R.Barotov, L.Ya.Olimov, R.J.Solieva, E.M.Muxtorov Mentalitet psixologiyasi . T.2008y
 29. E.G'oziev "Tafakkur psixologiyasi" 1990.y.
 30. E. G'oziev "Menejment psixologiyasi" T. 2001 y.
 31. E. G'oziev, R.Toshimov "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" T.2004 y.
 32. E.G'oziev, R.Toshimov "Pedagogik faoliyatingizni baholashni uddalaysizmi?" T. 2001 y.
 33. N.B.Kamilova "Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari. T. 2004 y.
 34. B.R.Qodirov "Kasbiy tashxis metodikalari to'plami" T. 2003.
 35. Z.T.Nishanova "Psixologik xizmat" T. 2006. y.
 36. Beruniy Abu Rayxon Tanlangan asarlar. T.1. – T.: 1957.
 37. Ibn Sino Falsafiy qissalar. – T.: O'qituvchi, 1963. – B.48.
 38. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.
 39. S. Jalilova "Psixodiagnostika". T. 2000.
 40. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash: (Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) G' – T.: SHarq, 2000. –

112 b.

41. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “Universitet”, 1999. – 96 b.

42. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. – T.: 2000.

43. Usmanova e.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. – T.: O'zbekiston, 2000. – 23 b.

44. E.G'oziev «Oliy maktab psixologiyasi» T.. 1997 y.

45. D.B.Raxmonova etnopsixologiya.(ma'ruza matni) T.2010

46. Arutyunyan Yu.V. Etnosotsiologiya. M. 2004.

47. Bromley Yu.V. Etnos i etnografiya. M. 1999 g.

48. Stefanenko T.G. Etnopsixologiya. M. 1999 g.

49. R. S. Nemov “Psixologiya”. V. 3 —x knjigax. M. 2000.

50. A. I. Sherbakov “Slovar”. M. 1990

51. A . Sherbakov “Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum”. T. 1992.

52. Efimova N.S. Psixologiya obsheniya. Praktikum po psixologii: Uchebnoe posobie. – M.: ID “FORUM”: INFRA-M. 2006. – 192 s.

53. Zarochensev K.D., Xudyakova A.I. Eksperimentalnaya psixologiya: Uchebnik. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005. – 208 s.

54. Psixodiagnostika i proforientasiya v obrazovatelnix uchrejdeniyax G' Red. –sost. L.D. Stolyarenko. – Rostov nG'D: Feniks, 2005. – 416 s.

55. Slovar prakticheskogo psixologa G'G' Sost. S.Yu.Golovin. – Minsk: Xarvest, M.: OOO “Izdatelstvo AST”, 2003. – S. 314-318

56. E.G.Goziev. Umumiy psixologiya. Toshkent 2002 yil.

57. E.G.Goziev, Sh.V. Azizova. Tashkiliy psixologiya. T. 1999 y.

58. E.G.Goziev, B.Xasanov. Psixologiya muamolari. T.1999.

59. E.G.Goziev. Shaxs psixologiyasi. 1999.

Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:

www.pedagog.uz,

www.google.uz,

www.ziyonet.uz,

www.glef.org,

www.newhorizons.org,

ILOVALAR

ANKETA №	
----------	--

**Axolii yashash punkt
nomi** _____

Respondent haqida ma'lumotlar (intervyuer tomonidan to'ldiriladi)

01	02	03	04	05	06	07
----	----	----	----	----	----	----

«AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK» SO'ROV ANKETASI

Sizga mazkur tadqiqotda ishtirok etishga rozi bo'lganligingiz uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz. Avvalo, shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, sizga berilayotgan savollarning to'g'ri yoki noto'g'ri javoblari mavjud emas. SHuningdek, siz kabi insonlarning ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, jamoatchilik bilan munosabat, gazeta, jurnal, internet) to'g'risidagi ob'ektiv shaxsiy fikrlarini bilishni istar edik.

Ishonchingiz komil bo'lsinki, sizning javoblaringiz oshkor etilmaydi. Ular faqatgina umumlashgan ko'rinishda ishlatiladi.

TELE MOTSIVATSIYA.

1. Iltimos, aytingchi, siz televizorni qanday tartibda ko'rib borasiz?

har kuni	
haftada bir necha marta	
oyiga bir necha marta	
yiliga bir necha marta	
umuman ko'rmayman	

2. Iltimos, aytingchi, siz kuniga qancha vaqt (necha soat) televizor tomosha qilasiz?

___ soat

3. Odatda, siz qaysi vaqt oralig'ida televizor tomosha qilasiz?

6.00-8.00	8.00-10.00	10.00-12.00	12.00-16.00	16.00-18.00	18.00-20.00	20.00-23.00	23.00-6.00

4. Iltimos, aytingchi, siz mahalliy va xorijiy telekanallar (Rossiya, qo'shni mamlakatlar, AQSH, Yevropa) teledasturlarini tomosha qilishga qancha vaqt ajratasiz?

Teledasturlar mavzulari	Telekanallar	Ko'pincha	O'rtacha	Kam	Umuman ko'rmayman
Yangiliklar (<i>O'zbekiston va dunyoda yuz bergan voqea-hodisalar haqidagi yangiliklar, siyosiy va ijtimoiy mavzularga oid ko'rsatuvlar</i>)	O'zbekiston				
	Qo'shni mamlakatlar (qozoq, tojik, turkman, qirg'iz va boshq.)				
	Xorijiy (Rossiya va boshq.)				
Ko'ngilochar (<i>mahalliy va xorijiy filmlar, seriallar, musiqiy va sport dasturlari, tok-shou, teleo'yinlar</i>)	O'zbekiston				
	Qo'shni mamlakatlar (qozoq, tojik, turkman, qirg'iz va boshq.)				
	Xorijiy (Rossiya va boshq.)				
Ilmiy-ommabop (<i>tovar va xizmatlar to'g'risidagi ko'rsatuvlar, foydali maslahatlar, tabiat va hayvonot, fan-texnika va boshqa ilmiy-o'quv teledasturlar</i>)	O'zbekiston				
	Qo'shni mamlakatlar (qozoq, tojik, turkman, qirg'iz va boshq.)				
	Xorijiy (Rossiya va boshq.)				

5. Siz asosan qaysi telekanallarni ko'rasiz? Iltimos, ularning nomlarini yozing.

6. Quyidagi telekanallarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish uchun siz qaysi vositalardan foydalanasiz?

Telekanallar	Oddiy antenna	Sputnik antenna	Pullik kabel televidenie	Ko'rish imkoniyati yo'q	Bilmayman
O'zbekiston markaziy telekanallari					
Mahalliy (viloyat, tuman) telekanallari					

MDH telekanallari (Rossiya, qo'shni mamlakatlar)					
Xorijiy mamlakatlar telekanallari					

7. Iltimos, sizni mahalliy telekanallar qanchalik qoniqtirishini quyidagi mezonlar asosida baholang.

	To'liq qoniq tiradi	Qisman qoniq tiradi	Ba'zan qoniqtiradi, ba'zan qoniqtirmaydi	Qisman qoniq tirmaydi	Umuman qoniq tirmaydi
O'zbekistondagi voqea-hodisalar yoritilishining to'liqligi					
Dunyodagi voqea-hodisalar yoritilishining to'liqligi					
O'zbekistondagi voqea-hodisalar yoritilishining ob'ektivligi					
Dunyodagi voqea-hodisalar yoritilishining ob'ektivligi					
Voqea-hodisalarning yoritilishining qiziqarliligi					
Voqea-hodisalar yoritilishining tezkorligi					
Telejurnalistlarning kasbiy mahorati					

8. Iltimos, aytingchi, sizning teledasturlarni tomosha qilishingizga nimalar to'sqinlik qiladi va ularning ta'sirini qanday baholaysiz.

	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz	Bunday muammo yo'q
Signal sifati yomonligi yoki yo'qligi («antenna olmaydi», yomon ko'rsatadi)				
Kabel TV yoki sputnik antennaning qimmatligi				
Kabel TV yo'qligi				
Elektroenergiyaning yo'qligi (svet o'chishi)				

GAZETA VA JURNALLAR

9. Iltimos, aytingchi, siz gazeta va jurnallarni qanday tartibda o'qib borasiz?

har kuni	
haftada bir necha marta	
oyiga bir necha marta	
yiliga bir necha marta	
umuman ko'rmayman	

10. Iltimos, aytingchi, siz kuniga qancha vaqt (necha soat) gazeta va jurnal mutoala qilasiz?

___ soat

11. Iltimos, aytingchi, siz mahalliy va xorijiy gazeta-jurnallar (Rossiya, qo'shni mamlakatlar, AQSH, Yevropa) materiallarini o'qishga qanchalik ko'p yoki kam vaqt ajratasiz?

Maqola va boshqa materiallar mavzulari	Gazet, jurnallar	Ko'p o'qiyman	Unchalik ko'p o'qimayman	Kam o'qiyman	Umuman o'qimayman	Bilma
Yangiliklar (<i>O'zbekiston va dunyoda yuz bergan voqea-hodisalar haqidagi yangiliklar, siyosiy va ijtimoiy mavzularga oid makolalar</i>)	O'zbekiston					
	Qo'shni mamlakatlar (qozoq, tojik, turkman, qirg'iz va boshq.)					
	Xorijiy (Rossiya va boshq.)					
Ko'ngilochar (<i>mahalliy va xorijiy yulduzdar, musiqiy va sport makolalar, krossvordlar</i>)	O'zbekiston					
	Qo'shni mamlakatlar (qozoq, tojik, turkman, qirg'iz va boshq.)					
	Xorijiy (Rossiya va boshq.)					
Ilmiy-ommabop (<i>tovar va xizmatlar to'g'risidagi materiallar, foydali maslahatlar, tabiat va hayvonot, fan-texnika va boshqa ilmiy-o'quv makolalar</i>)	O'zbekiston					
	Qo'shni mamlakatlar (qozoq, tojik, turkman, qirg'iz va boshq.)					
	Xorijiy (Rossiya va boshq.)					

12. Siz asosan qaysi gazeta va jurnallarni o'qiysiz? Iltimos, ularning nomlarini yozing.

13. Iltimos, sizni mahalliy gazeta va jurnallar qanchalik qoniqtirishini quyidagi mezonlar asosida baholang.

	To'liq qoniq tiradi	Qisman qoniq tiradi	Ba'zan qoniqtiradi, ba'zan qoniqtirmaydi	Qisman qoniq tirmaydi	Umuman qoniq tirmaydi
O'zbekistondagi voqea-hodisalar yoritilishining to'liqligi					
Dunyodagi voqea-hodisalar yoritilishining to'liqligi					
O'zbekistondagi voqea-hodisalar					

yoritilishining ob'ektivligi					
Dunyodagi voqea-hodisalar yoritilishining ob'ektivligi					
Voqea-hodisalarning yoritilishining qiziqarliligi					
Voqea-hodisalar yoritilishining tezkorligi					
Jurnalistlarning kasbiy mahorati					

14. Iltimos, aytingchi, sizning gazeta va jurnallarni o'qishingizga nimalar to'sqinlik qiladi va ularning ta'sirini qanday baholaysiz.

	Kuchli	O'rtacha	Kuchsi z	Bunday muammo yo'q
Obuna muammosi				
Matbuot tarqatish shaxobchalarida sizni qiziqtirgan gazeta-jurnallarning taqchilligi				
Matbuot tarqatish shaxobchalari siz yashaydigan manzildan uzoqda joylashganligi				
Gazeta-jurnallar narxining qimmatligi				

RADIO MOTSIVATSIYA

15. Iltimos, aytingchi, siz qanday tartibda radio tinglab (eshitib) borasiz?

har kuni	
haftada bir necha marta	
oyiga bir necha marta	
yiliga bir necha marta	
umuman eshitmayman	

16. Iltimos, aytingchi, siz kuniga qancha vaqt (necha soat) radio eshitasiz?
___ soat

17. Odatda, siz qaysi vaqt oralig'ida radio eshitasiz?

6.00-8.00	8.00-10.00	10.00-12.00	12.00-16.00	16.00-18.00	18.00-20.00	20.00-23.00	23.00-6.00

18. Iltimos, aytingchi, siz mahalliy va xorijiy (Rossiya, qo'shni mamlakatlar, AQSH, Yevropa) radioeshittirishlarini tinglashga qancha vaqt ajratasiz?

Radioeshittirishlar mavzulari	Radiostantsiyalar	Ko'p tinglayman	Unchalik ko'p tinglamayman	Kam tinglayman	Umuman tinglamayman	Bilmadi
Yangiliklar	O'zbekiston					

<i>(O'zbekiston va dunyoda yuz bergan voqea-hodisalar haqidagi yangiliklar, siyosiy va ijtimoiy mavzularga oid eshittirishlar)</i>	Xorijiy (Rossiya va boshq.)					
Ko'ngilochar <i>(mahalliy va xorijiy yulduzlar xaeti, musiqa va sport eshittirishlar, radioo'yinlar)</i>	O'zbekiston					
	Xorijiy (Rossiya va boshq.)					
Ilmiy-ommabop <i>(tovar va xizmatlar to'g'risidagi eshittirishlar, foydali maslahatlar, tabiat va hayvonot, fan-texnika va boshqa ilmiy-o'quv dasturlar)</i>	O'zbekiston					
	Xorijiy (Rossiya va boshq.)					

19. Siz asosan qaysi radostantsiya eshittirishlarini tinglaysiz? Iltimos, radiostantsiyalarning nomlarini yozing.

20. Iltimos, sizni mahalliy radiokanallar qanchalik qoniqtirishini quyidagi mezonlar asosida baholang.

	To'liq qoniq tiradi	Qisman qoniq tiradi	Ba'zan qoniqtiradi, ba'zan qoniqtirmaydi	Qisman qoniq tirmaydi	Umuman qoniq tirmaydi
O'zbekistondagi voqea-hodisalar yoritilishining to'liqligi					
Dunyodagi voqea-hodisalar yoritilishining to'liqligi					

O'zbekistondagi voqea-hodisalar yoritilishining ob'ektivligi					
Dunyodagi voqea-hodisalar yoritilishining ob'ektivligi					
Voqea-hodisalarning yoritilishining qiziqarliligi					
Voqea-hodisalar yoritilishining tezkorligi					
Radiojurnalistlarning kasbiy mahorati					

21. Iltimos, aytingchi, sizning radiodasturlarni tomosha qilishingizga nimalar to'sqinlik qiladi va ularning ta'sirini qanday baholaysiz.

	Kuchli	O'rtacha	Kuchsi z	Bunday muammo yo'q
Signal sifati yomonligi yoki yo'qligi («antenna olmaydi», yomon eshitiladi)				
Umuman radioto'lqin mavjud emasligi				

INTERNET

22. Iltimos, aytingchi, siz Internetdan qanday tartibda foydalanasiz?

har kuni	
haftada bir necha marta	
oyiga bir necha marta	
yiliga bir necha marta	
umuman foydalanmayman	

23. Iltimos, aytingchi, siz kuniga qancha vaqt (necha soat) Internetdan foydalanasiz?
___ soat

24. Qanday vosita yordamida Internetdan foydalanasiz?

Vosita turi	
Uydagi kompyuter uchun alohida ajratilgan tarmoq	
Simsiz modem («internet- fleshka»)	
Uyali telefon, smartfon	
Internet-kafe	
Ishxonadagi Internet	

25. Iltimos, aytingchi, Internetdan foydalanishda quyidagilarga qancha vaqt ajratasiz?

	Ko'pincha	O'rtacha	Kam	Umuman ishlatmayman	Bilmayman
SHaxsiy, oilaviy, maishiy ishlarga oid axborot izlashga					
Ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan axborot izlashga					

Ish jarayoni uchun zarur bo'lgan axborot izlashga					
Telekanal va radiostantsiyalar, gazeta, jurnallar, yangiliklar portallari va Internet-nashrlar saytlarini ko'rish, o'qish					
Entsiklopediya, lug'at va boshqa zaruriy axborot izlashga					
Davlat organlari faoliyatiga oid ma'lumotlarni ularning rasmiy saytidan olishga					
BuyurtmaG'xaridlarni Internet orqali amalga oshirishga (tovarlar, biletlar kabi)					
Ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqat					
Chat va forumlar orqali muloqat					
«Lahzalik xabar» (masalan, ICQ) orqali muloqat					
Musiqqa eshitish va yuklab olish					
Film, seriallar ko'rish va yuklab olish					
Kitob, referatlar va boshqa materiallarni o'qish, yuklab olish					
Elektron pochta orqali yozishmalar					
Onlayn-o'yinlar o'ynash					
Rasmlar tomosha qilish					
Internet-radio tinglash					
Internet-televidenie ko'rish					

26. Iltimos, aytingchi, muloqat Internet-servislaridan qaysi tartibda foydalanasiz?

	Har kuni	haftada bir necha marta	oyiga bir necha marta	yiliga bir necha marta	umuman foydalanmayman	Bu nima ekanligini bilmayman
Sotsial tarmoqlar («odnoklassniki», «feysbuk» va boshq.)						
Chat, forum, bloglar						
«Lahzalik xabarlar» (masalan, ICQ)						
Telefon va video qo'ng'iroqlar (Skayp va boshq.)						

27. Siz asosan qaysi Internet saytlarini kuzatib borasiz? Iltimos, saytlar nomlarini yozing.

28. Iltimos, aytingchi, sizning Internet tarmog'ida ishlashingizga nimalar to'sqinlik qiladi va ularning ta'sirini qanday baholaysiz.

To'sqinlik qiluvchi omillar	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz	Bunday muammo yo'q	Bilmayman
Internetning tezligi pastligi					
Internetdan foydalanishning qimmatligi					
Internetga ulanish texnik imkoniyati yo'qligi					
Ba'zi saytlarga kirish imkoniyati yo'qligi (yopiqligi)					

O'ZINGIZ HAQINGIZDA QISQACHA GAPIRIB BERING

29. Iltimos, aytingchi, siz qaysi tillarni bilasiz? Qanday darajada?

Tillar	Ona tilim, asosan shu tildan foydalanaman	Yaxshi bilaman	Yaxshi emas, lekin tushunaman	Bilmayman
O'zbek				
Rus				
Ingliz				

30. Hozirgi vaqtda sizning asosiy kasbingiz nima?

Malakali ishchi, shu jumladan, qishloq xo'jaligida	
Malakasiz ishchi, shu jumladan, qishloq xo'jaligida	
Armiya, ichki ishlar idoralarida va boshqa idoralarda harbiy xizmatchi	
Ishbilarmon, tadbirkor, fermer	
Davlat xizmatchisi, ma'muriy idoralar ishchisi	
Oliy ma'lumotli mutaxassis	
Oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xizmatchi (kotib, ofis xodimi, sotuvchi)	
O'z shaxsiy tamorqa xujaligimda ishlayman	
Ihsiz, ish qidiruvchi	
O'quvchi, talaba	
Nafaqaxo'r	
Uydagi yumushlar bilan band, ikki yoshgacha bola tarbiyasi ta'tilida	
Boshqa	

31. Sizning ma'lumotingiz?

O'rta, o'rta maxsus ma'lumot (maktab, kollej, litsey, texnikum)	
Tugallanmagan oliy (OO'Yu 4-kursidan), oliy ma'lumot	

32. Biz ushbu so'rov ma'lumotlari bilan ishlash jarayonida aholi daromad darajalarini hisobga olishni xohlardik. Iltimos, aytingchi, o'tgan oyda sizning oila a'zolaringizning umumiy oylik daromadi qancha summani tashkil etgan (ish xaqdari, nafaqalar, stipendilar, bolalar puli)? biz uchun aniq raqamni bilish shart emas, faqat umumiy interval.

200 ming soʻmdan kam		1 mln. dan 1 mln. 200 ming soʻmgacha	
200 ming dan 300 ming soʻmgacha		1 mln. dan 1 mln. 400 ming soʻmgacha	
300 ming dan 400 ming soʻmgacha		1 mln. 400 ming dan 1 mln. 600 ming soʻmgacha	
400 ming dan 500 ming soʻmgacha		1 mln. 600 ming dan 1 mln. 800 ming soʻmgacha	
500 ming dan 600 ming soʻmgacha		1 mln. 800 dan 2 mln. soʻmgacha	
600 ming dan 700 ming soʻmgacha		2 mln. dan 2 mln. 500 ming soʻmgacha	
700 ming dan 800 ming soʻmgacha		2 mln. 500 ming soʻmdan koʻp	
800 ming dan 1 mln. soʻmgacha		Javob yoʻq	

Axborot xavfsizlik boʻyicha psixologik

GLOSSARIY

Fenomen – tabiiy fanlardagi odatdan tashqarida boʻlgan koʻrinish, voqea.

Kommunikatsiya - (lotincha communicatio — maktub, joʻnatuv): tirik mavjudodlar oʻrtasidagi maʼlumot almashinuvi.

Psixologik manipulyatsiya- taʼsir koʻrsatishning ijtimoiy usuli.

Mentalitet (ing.mentality-oʻziga xoslik) -psixik xususiyatlar, sifatlar va jarayonlarning oʻziga xos tuzilishi, yigʻindisi, shaklini anglatuvchi umumlashgan tushuncha.

Milliy test normalari (ing.test-sinov,norma-oʻlchov)-standartlashtirilgan normalar, ular testlarning mezonlarini hisobga oladigan va milliy tus beradigan normalardir.

Milliy his-tuygʻular-milliy anʼana, urf-odat, qadriyatga asoslangan hislar tizimi.

Milliy oʻz-oʻzini anglash-oʻz milliyligini anglash, milliy qadriyat va urf-odatlarga hurmatda boʻlish.

Oila- turmush koʻrish, qarindosh urugchilik, asosida koʻriladigan kichik guruh.

Ong – psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. Insonni voqelikni tafakkurida aks ettirish qobiliyatini aniqlaydi. Psixikaning oliy, uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan

(til yordamida) muloqot qilish jarayonida shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi. Ong tarkibiga uning psixologik ta'rifi-ong, sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi farqlanishi, kishining maqsadni ko'zlovchi faoliyati va muayyan munosabatlar kiradi.